2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 208 (1807), 2026-yil 8-oktabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston — Rossiya Hukumatlararo komissiyasi va Hududlar kengashining navbatdagi yig‘ilishlarida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo‘lib turgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o‘rinbosari Denis Manturov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Suhbat avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajadagi uchrashuvlar yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimiz yetakchisi kuni kecha bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va Hududlar kengashining uchinchi yig‘ilishi natijador bo‘lganini olqishladi.

O‘zaro savdo hajmi barqaror o‘sib borayotgani, sanoat, energetika, metallurgiya, tinch atom va boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalari ilgari surilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlashni yanada kengaytirish, sanoat zonalari doirasidagi qo‘shma loyihalarni jadallashtirishga qaratilgan o‘zaro muvofiqlashtirilgan choralarni ko‘rish hamda hududlar va biznes darajasidagi faol muloqotni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-oktabr kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Rossiya yetakchisini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va muvaffaqiyatlar, do‘st Rossiya xalqiga esa ravnaq tiladi.

Vladimir Putinning zamonaviy Rossiyani barpo etishdagi tarixiy roli hamda O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shayotgan shaxsiy hissasi qayd etildi.

Hamkorlik aloqalari barcha yo‘nalishlarda jadal rivojlanayotgani mamnuniyat bilan ta’kidlandi. O‘zaro savdo hajmi, sanoat, energetika va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda yetakchi korxonalar kooperatsiyasi ko‘lami izchil ortib bormoqda.

Kuni kecha Farg‘ona shahrida bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi hamda Hududlar kengashining uchinchi yig‘ilishi natijalari yuqori baholandi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvlar davom etmoqda: yaqinda mamlakatimizda “San’atlar olami” deb nomlangan Rossiya san’ati festivali muvaffaqiyatli o‘tkazildi, ayni kunlarda esa Moskva shahrida O‘zbekiston madaniyati kunlari bo‘lib o‘tdi.

Tomonlar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashib, bo‘lajak tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TURKMANISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan 7-oktabr kuni amaliy tashrif bilan Turkmanistonga keldi.

Turkmanboshi shahri aeroportida davlatimiz rahbarini Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o‘rinbosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, O‘zbekiston yetakchisi 8-oktabr kuni Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvida, 9-oktabr kuni esa Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining navbatdagi sammitida ishtirok etadi.

Maslahat uchrashuvi kun tartibidan siyosiy-diplomatik hamkorlikni yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, energetika sohasidagi sheriklikni kengaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni amalga oshirish, madaniyat, ta’lim va ilm-fan sohalaridagi hamda yoshlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish masalalari o‘rin olgan.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar hamda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga oid ustuvor vazifalar yuzasidan fikr almashish ko‘zda tutilgan.

MDH davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishida Hamdo‘stlik doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik yakunlari sarhisob qilinib, uni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilinadi. MDH tashkil etilganining 35 yilligini nishonlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Tadbirlar yakunida qo‘shma hujjatlar to‘plamini qabul qilish ko‘zda tutilgan.

Tashrif dasturiga muvofiq, qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish ham rejalashtirilgan.

O‘zA

XALQARO PAXTA KUNI HAMDA DENGIZGA CHIQISH IMKONI BO‘LMAGAN RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA BAG‘ISHLANGAN XALQARO ANJUMANLAR ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli xalqaro anjuman ishtirokchilari!

Qadrli mehmonlar!

Dunyoning 30 dan ziyod mamlakatidan taniqli olim va ekspertlar, tadbirkorlar, shuningdek, ko‘plab xalqaro tashkilotlar vakillari ushbu forumlarda ishtirok etayotgani ularga bo‘lgan e’tibor va qiziqish katta ekanidan dalolat beradi.

Aziz do‘stlar!

O‘zbek dehqonlari paxtachilik bo‘yicha ulkan tajribaga ega. Keyingi yillarda amalga oshirayotgan tub islohotlarimiz tufayli bu soha yangi bosqichga ko‘tarildi. Izlanuvchan olimlarimiz tomonidan g‘o‘zaning 300 ga yaqin ertapishar navi yaratildi. Paxta ekish, parvarishlash, yig‘ib olish jarayoni to‘liq mexanizatsiyalashtirildi. Bugungi kunda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobiga dehqon-fermerlarimiz gektaridan 100 sentnergacha paxta hosili olmoqda.

Xalqaro paxta kuni O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga va mamlakatimizni ishonchli hamkor sifatida tanitishga xizmat qiladi, albatta.

Hozirgi vaqtda iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, qurg‘oqchilik kabi muammolar bilan birga logistika zanjiridagi uzilishlar ham oziq-ovqat narxining oshishiga olib kelmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 645 milliondan ortiq odam ochlikdan aziyat chekmoqda. Xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, tegishli chora-tadbirlar ko‘rilmasa, 2028-yilda bu raqam 1 milliardga yetishi mumkin.

Insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan bunday xatarlarni bartaraf etish ko‘p qirrali sheriklik va birgalikdagi sa’y-harakatlarga bog‘liq. Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar uchun yuqori transport xarajatlari va tranzit mamlakatlardagi muammolar jiddiy g‘ov bo‘lib qolmoqda. Bunday qiyinchiliklar oziq-ovqat xavfsizligiga ham ta’sir ko‘rsatadi, albatta. Shu bois, biz oziq-ovqat mahsulotlari logistikasi va savdosining to‘liq erkinligi hamda oziq-ovqat yetkazishni tartibga soluvchi qoidalarni soddalashtirish tarafdorimiz.

Biz 2030-yilgacha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni 2 barobar, eksport va qo‘shilgan qiymatni 3 karra oshirish bo‘yicha katta marra olganmiz. Bu maqsadlarga erishish uchun xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish niyatidamiz.

Markaziy Osiyodan boshlab, dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar va tranzit hamkorlarni bog‘laydigan oziq-ovqat hamkorligi dasturini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari va xususiy investorlarni oziq-ovqatni qayta ishlash, sovitkichli saqlash va tashish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga chaqiramiz.

Qadrli mehmonlar!

Ushbu forum ishtirokchilar tomonidan bildirilgan yangi tashabbus va strategiyalarni ro‘yobga chiqarish, birgalikdagi sa’y-harakatlarni kuchaytirish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi, deb ishonaman.

Anjumanlar faoliyatiga va barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Ta’lim va ilm-fan vazirligi faoliyatini tashkil etish hamda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Yaqinda Prezidentimiz farmoni bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yagona Ta’lim va ilm-fan vazirligi sifatida qayta tashkil etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad ta’lim, tarbiya va ilm-fanning yaxlit tizimini shakllantirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish ishlarini yangi bosqichga olib chiqishdir.

Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlar va ilmiy faoliyat o‘rtasida uzviylikni ta’minlash, tizimni yagona yondashuv asosida boshqarish vazifasi qo‘yilgan. Bunda ta’lim mazmunini zamon va mehnat bozori talablariga moslashtirish, raqobatni rivojlantirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda sohaning jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Taqdimotda yangi vazirlik faoliyatini joylardagi haqiqiy holatga tayanib tashkil etish, takrorlanuvchi vazifalarni qisqartirish va hududiy bo‘g‘inlar mas’uliyatini kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Boshqaruvni raqamlashtirish va tahliliy salohiyatni oshirish qarorlarni ishonchli ma’lumotlar asosida qabul qilishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Maktabgacha ta’limda bolani har tomonlama rivojlantirish, dastur va metodikalarni yangilash hamda tarbiyachilar malakasini oshirishga e’tibor qaratildi. Shuningdek, bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini erta aniqlash, ta’lim muassasalarida zamonaviy sharoitlar yaratish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Maktab ta’limida darsliklarni yangilash, o‘quvchilarning bilim va amaliy ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish hamda ularni baholash tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi. Pedagoglarga metodik yordam ko‘rsatishda sun’iy intellektdan foydalanish, ayrim maktablarda ingliz tilida ta’lim berish tajribasini o‘tkazish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish taklif etildi.

Kasbiy ta’lim bo‘yicha yoshlarning qiziqishlarini erta aniqlash, texnikumlar dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish va ularning moddiy bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyat berildi. Korxonalar bilan hamkorlikda dual ta’limni kengaytirish, xalqaro dasturlar va zamonaviy o‘quv materiallarini joriy etish masalalari ko‘rib chiqildi.

Oliy ta’limda universitetlar mustaqilligini kengaytirish, boshqaruv sifatini va rahbarlarning natija uchun mas’uliyatini oshirish taklif qilindi. Shu bilan birga, yetakchi xorijiy oliygohlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, ta’limni ishlab chiqarish bilan yaqinlashtirish va talabalarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

Ilm-fan sohasida ilmiy klasterlarni rivojlantirish, universitetlar, laboratoriyalar va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga e’tibor qaratildi. Ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish hamda ular asosida yangi mahsulotlar va korxonalar yaratish bo‘yicha takliflar taqdim etildi.

Taqdimot davomida Prezidentimiz ta’limning bog‘chadan oliygohgacha bo‘lgan barcha bosqichlari yagona vertikal sifatida ishlashi, ayniqsa, maktab va universitet o‘rtasidagi uzviylik mustahkamlanishi zarurligini ta’kidladi. Har bir bosqichda ta’lim sifatiga e’tiborni kuchaytirish, bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va bu qadriyatlarga butun ta’lim jarayonida va ilmiy faoliyatda tayanish muhimligi qayd etildi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga joriy etishga alohida e’tibor qaratilib, rektorlar o‘z universitetining yaqin va o‘rta muddatli istiqbolda qanday rivojlanishi haqida aniq tasavvur hamda rejaga ega bo‘lishi kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

Mutasaddilarga takliflarni puxta ishlab chiqish topshirildi.

O‘zA

SHIFOXONALARGA ASOSLANGAN ESKI MODELDAN KASALLIKLARNING OLDINI OLISH VA RAQAMLASHTIRILGAN TIBBIYOTGA O‘TISH BOSQICHI

Ikkinchi milliy dastur sharhi

Xalqi sog‘lom davlatning ildizi mustahkam, kelajagi porloq, rivojlanishi bardavom bo‘ladi. Shu ma’noda, aholi salomatligini ta’minlash yangi O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangani g‘oyat katta ahamiyatga ega. Zero, Prezidentimiz alohida qayd etganidek, “Yangi O‘zbekiston — avvalo, inson hayoti, uning salomatligi, huquq va manfaatlari, qadr-qimmati qonun asosida himoya qilinadigan davlat degani”.

Davomi 3-betda



So‘nggi yillarda O‘zbekiston mintaqaviy hamkorlikni faol rivojlantirdi, oliy darajadagi uchrashuvlarga mezbonlik qildi. Xususan, 2019-yil 29-noyabr kuni Toshkentda ikkinchi Maslahat uchrashuvi tashkil etilgan bo‘lsa, 2025-yil 16-noyabr kuni ushbu formatdagi yettinchi sammit o‘tkazildi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 8-oktabr, 208-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

7-9-oktabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonga tashrif buyurib, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvi hamda MDHning navbatdagi sammitida ishtirok etadi.



AVAZADAGI SAMMITLAR – BARQAROR RIVOJLANISH VA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA SARI MUHIM QADAM

Turkmanistondagi “Avaza” milliy sayyohlik zonasida 2021-yil 6-avgust kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tgan edi.

O‘shandan buyon mintaqaviy hamkorlik formati sezilarli darajada kengaydi va bugun yangi bosqichga qadam qo‘ymoqda. 2025-yil 16-noyabr kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi ushbu jarayonning muhim bosqichi bo‘lib, uning yakunlariga ko‘ra Ozarbayjon ushbu formatga to‘la huquqli ishtirokchi sifatida qo‘shildi.

2026-yil 31-iyul kuni Cho‘lponotada tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon rahbarlarining norasmiy Maslahat uchrashuvi mazkur jarayonning uzviy davomi bo‘ldi. Uchrashuv yakunida Cho‘lponota deklaratsiyasi qabul qilindi.

Avazada kutilayotgan sammit ushbu muloqotni hamda oldingi uchrashuvlar davomida shakllangan yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy hamkorlikni rivojlantirishning navbatdagi bosqichi bo‘ladi.

O‘tgan yillar mobaynida Maslahat uchrashuvlari formatining mintaqa davlatlarining muntazam siyosiy muloqoti va amaliy hamkorligi uchun barqaror maydonga aylanishi kuzatildi. Avvalgi anjumanlar kun tartibiga izchil kiritib kelingan savdo va investitsiyalar, transport va energetika, sanoat kooperasiyasi, xavfsizlik, ekologiya hamda gumanitar aloqalar masalalari istiqboldagi sherikning asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishning faol ishtirokchilaridan biri sifatida izchil faoliyat yuritib kelmoqda. Aynan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam Maslahat uchrashuvlari formati ilgari surilgan edi. Dastlabki shunday uchrashuv 2018-yil 15-mart kuni Ostonada bo‘lib o‘tdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston mintaqaviy hamkorlikni faol rivojlantirdi, oliy darajadagi uchrashuvlarga mezbonlik qildi. Xususan, 2019-yil 29-noyabr kuni Toshkentda ikkinchi Maslahat uchrashuvi tashkil etilgan bo‘lsa, 2025-yil 16-noyabr kuni ushbu formatdagi yettinchi sammit o‘tkazildi.

Oltinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Ular orasida O‘zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Markaziy Osiyo — 2040” mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirish konsepsiyasi, 2025-2027-yillarda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” hamda 2025-2027-yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar rejasi mavjud.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlarida transport-logistika markazlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumi, Markaziy Osiyo energetika vazirlarining birinchi uchrashuvi yakunlari bo‘yicha kommyunike hamda Markaziy Osiyo davlatlari transport vazirlarining ikkinchi uchrashuvi bo‘yicha Ostona kommyunikesi imzolandi.

Avazada bo‘lib o‘tadigan tadbirlarda mintaqaviy kun tartibi bilan bir qatorda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasidagi hamkorlik ham muhim o‘rin egallaydi.

MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi 2026-yil 9-oktabr kuni Turkmanistonning “Avaza” milliy sayyohlik zonasida bo‘lib o‘tadi. Bo‘lajak sammit Hamdo‘stlik doirasidagi keng ko‘lamli yo‘nalishlar, savdo-iqtisodiy, transport, xavfsizlik, ilmiy-texnikaviy, innovatsion, gumanitar va madaniy aloqalar bo‘yicha sheriklik faol rivojlanayotgan bir sharoitda o‘tkaziladi.

2017-yildan buyon O‘zbekistonning MDH faoliyatidagi ishtiroki tizimli va amaliy tus oldi. Bugungi kunda mamlakatimiz Hamdo‘stlikning barcha ustav idoralari — davlat rahbarlari, hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari, mudofaa vazirlari, chegara qo‘shinlari qo‘mondonlari, iqtisodiy kengashlar va parlamentlararo assambleya yig‘ilishlarida faol qatnashib kelmoqda.

2017-2022-yillarda O‘zbekiston Prezidentining MDH davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishlaridagi ishtiroki yakunlari bo‘yicha imzolangan hujjatlar hamda O‘zbekiston tomonidan bildirilgan tashabbuslarning o‘z vaqtida va to‘laqonli ijrosini ta’minlashga qaratilgan “Yo‘l xaritalari” qabul qilindi.

Mazkur “Yo‘l xaritalari”ni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston sohaviy hamkorlik bo‘yicha 24 ta idoraga qo‘shildi. Natijada mamlakatimiz MDHning 86 ta organidan vazifalari milliy manfaatlarga javob beradigan, O‘zbekiston tomoni uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan 66 ta tuzilmasi faoliyatida ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston Hamdo‘stlik doirasidagi amaliy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni ham izchil ilgari surmoqda. 2020-yilda koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq murakkab sharoitga qaramay, O‘zbekistonning MDHga raisligi doirasida 50 dan ortiq tadbir tashkil etildi. Aynan shu davrda O‘zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan BMT Bosh Assambleyasining “BMT va MDH o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasi 2020-yil 23-noyabr kuni bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi.

2026-yilda MDHga Turkmaniston raislik qilmoqda, O‘zbekiston esa navbatdagi rais sifatida Hamdo‘stlikning bo‘lajak tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rishda faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekistonning har ikki formatdagi ishtiroki mamlakatimizning mintaqaviy va ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdagi izchil yondashuvini ifodalaydi. Bir tomondan, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash va Ozarbayjon bilan aloqalarni kengaytirishda qatnashayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, MDH va uning sohaviy tuzilmalari doirasidagi ishtirokini faol rivojlantirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Avazadagi uchrashuv bir yo‘la ikki — mintaqaviy va ko‘p tomonlama darajada muloqotni davom ettirish uchun muhim maydonga aylanmoqda. Ushbu tadbirlar ham Markaziy Osiyo va Ozarbayjon, ham MDH makoni uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hamkorlik yo‘nalishlarini o‘zaro muvofiqlashtirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Avazada o‘tkaziladigan tadbirlarning ahamiyati sammitlarning taqvimiy ketma-ketligi bilan cheklanib qolmaydi. Ular yanada chuqur tendensiya — mintaqa davlatlarining tarqoq ikki tomonlama aloqalardan Markaziy Osiyoning mintaqaviy formati hamda MDH doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik bir-biri bilan raqobatlashmay, aksincha, to‘ldiradigan ko‘p bosqichli hamkorlik tizimiga o‘tayotganini aks ettiradi.

Aynan shu sababli Avaza navbatdagi uchrashuvlar o‘tadigan manzil emas, balki mintaqaviy hamkorlikning yangi arxitekturasi shakllanayotgan maydonlardan biriga aylanmoqda.

“Dunyo” AA

Hayotiy tashabbuslar qanotida

IJTIMOIY XIZMATLAR SAMARASI MAMNUN YUZLARDA NAMOYON

Yurtimiz ijtimoiy himoya tizimida tub islohotlar o‘tkazildi. Natijada ijtimoiy xizmatlar sifati oshdi, ko‘lami kengaydi. Endi oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, salomatligi, ruhiy kechinmalari, ta’lim va bandlik ehtiyojlari kompleks baholanmoqda. Ayniqsa, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yaxlit tizim sifatida shakllanmoqda. Bunda ijtimoiy xatarni erta aniqlab, xizmat ko‘rsatish, hamrohlik qilish va natijaning monitoringini yuritish masalalari qamrab olinadi.

Bu boradagi ishlar samarasidan Navoiy viloyati ahli ham mamnun. Jumladan, Xatirchi tumanidagi 22 ming 200 fuqaro ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olingan. Shundan 12 mingi nogironligi bo‘lgan shaxslardir. Ularning ehtiyojini faqat tibbiy nuqtai nazardan emas, ijtimoiy jihatdan ham baholash muhim. Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi faoliyatidagi yangicha yondashuvlar tufayli avval nogironlik guruhini olish imkoniga ega bo‘lmagan fuqarolarga yangi standart asosida nogironlik belgilanmoqda.

— Avvalgi 120 kunlik majburiy davolanish talabi o‘zgardi. Natijada 56 shaxs muddatidan oldin nogironlik guruhini oldi, — deydi Xatirchi tumani tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi shifokori O‘tkir Arabov. — Shuningdek, 446 shaxs reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlanib, 262 nafariga tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmati ko‘rsatildi. Joriy yilda 940 fuqaro birlamchi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Yangi tizim joriy etildi. Endi inson omili ishtirokini kamaytirish uchun nogironlik guruhi elektron tizim orqali avtomatik belgilanadi. Avval bemorlar nogironlikni belgilatish uchun ko‘plab hujjatlarni yig‘ib, tibbiyot muassasalariga borishga majbur edi. Hozir bu tizim soddalashtirildi. Hujjatlarni bemorning o‘zi olib yurmaydi, ularni tegishli shifokorlarning o‘zi elektron tizim orqali bizga yuboradi. Tumanimizdagi tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasida 4 mutaxassis faoliyat yuritadi. Ular elektron tizim orqali yuborilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi. So‘ng bemor komissiya ko‘rigiga chaqiriladi. U taqdim etgan tibbiy hujjatlardagi ma’lumotlar murojaatchining sog‘lig‘i va holati bilan solishtiriladi. Shundan so‘ng o‘rnatilgan tartib asosida nogironlikni belgilash masalasi ko‘rib chiqiladi.

Ijtimoiy muammoning ko‘zga ko‘ringan jihati moddiy qiyinchilik bo‘lsa, ichki sababi ko‘pincha ruhiy holat bilan bog‘liq bo‘ladi. Ana shu masalani hal etishda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarida psixologlarning alohida o‘rni bor. Ular fuqarolarning ruhiy holatini o‘rganib, muammosini tushunishga yordam berib kelmoqda. Zarur hollarda tibbiy, huquqiy va boshqa ijtimoiy xizmatlarga yo‘naltiradi. Ayniqsa, uzoq yillar davomida nogironligi bo‘lgan farzandiga qarab kelayotgan, turmush qiyinchiliklarini yolg‘iz yengib o‘tayotgan oilalar, tazyiq va zo‘ravonlik ta’siridagi xotin-qizlar bilan ishlashda bunday ko‘makning ahamiyati katta.

— Shu vaqtgacha psixolog sifatida 12 ta toifa bilan ishlaganmiz. Hozir bu ko‘rsatkich yanada ko‘paymoqda, — deydi Xatirchi tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi Feruza Xolova. — Sababi, turli muammolarga duch kelgan, tazyiqqa uchragan ayollar va farzandlari bilan alohida shug‘ullanyapmiz. Oilada ziddiyat yuzaga kelgan, ota-onasini tushunmayotgan farzandlar bilan ishlash maqsadida “Mehrli oila” dasturi tashkil etilgan. Uning doirasida ota-onalar bilan alohida shug‘ullanib, ularga farzandi bilan til topishish, muomala qilish bo‘yicha psixologik yordam ko‘rsatyapmiz. Hozir 6 ta oila ushbu dasturga jalb etilgan. Ular bilan amaliy mashg‘ulotlar ham o‘tamiz.

Joriy yilning o‘tgan davrida tumandagi 5747 ta oila ijtimoiy reyestrga qamrab olingan. Ularning 1985 tasi davlat ta’minotidagi, 2970 tasi kambag‘al va 792 tasi kambag‘allik chegarasidagi oilalar. Muhimi, ehtiyojmandlik faqat oilaning daromadi bilan baholanmayapti. Bolaning ta’limi, fuqaroning salomatligi, ish bilan ta’minlangani, uy-joy sharoiti kabi omillar ham kompleks o‘rganilmoqda. Shu yondashuv natijasida ilgari reyestrda bo‘lmagan 169 ta muhtoj oila tizimga kiritildi. Ular uchun xizmat rejalari belgilandi. Muhimi, 3250 bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga, 95 nafari to‘garaklarga jalb etildi. 794 fuqaro doimiy ish bilan ta’minlandi.

Tumandagi Farovon mahallasida tadbirkor Kamoliddin Tursunov tashabbusi bilan 3-18 yoshdagi nogironligi bo‘lgan bolalar uchun “Kunduzgi parvarish”, 18 yoshdan kattalar uchun esa “Yangi kun” kunduzgi qarab turish xizmati yo‘lga qo‘yildi. Bu, o‘z navbatida, nogironligi bo‘lgan shaxslar va oila a’zolari uchun qulay imkoniyatlar yaratdi.

— O‘tgan yili kunduzgi parvarish xizmatini boshlagandik, — deydi tadbirkor. — Dastlab 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga xizmat ko‘rsatgan bo‘lsak, hozir 18 yoshdan kattalar uchun ham kunduzgi qatnov xizmatini tashkil etdik. Bu yerda diyetolog, massaj xizmatlari, mehnat terapiyasi yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, tikuvchilik, rasm chizish kabi mashg‘ulotlar o‘tilyapti.



Hozir kunduzgi parvarish xizmatida 6 ta ish o‘rni ochganmiz. Shuningdek, xizmatdan foydalanuvchilar tanloviga qarab maxsus transport qatnovi mavjud. Bundan tashqari, nogironligi bo‘lgan, yurishga qiynaladigan yoki nutqida muammosi bor bolalar bilan alohida shug‘ullanamiz. Mutaxassislar mehnati tufayli bolalarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilyapti. Ularning yutug‘idan ota-onalar xursand, albatta. Shuningdek, bola parvarishi bilan bandligi bois, ishlay olmayotgan onalarga ham qulaylik bo‘ldi. Ular farzandini kunduzgi parvarish xizmatiga olib kelib, o‘zlari ishlayapti. Kelgusida bu sohani yanada kengaytirishni reja qilganmiz. Jumladan, erkaklar uchun ham kunduzgi parvarish xizmatlarini tashkil etmoqchimiz. Shu orqali yangi ish o‘rinlari ham ochiladi.

Bu xizmatga Gulchehra Karimovaning nogironligi bor ikki farzandi ham jalb etilgan. Avval faqat bolalar parvarishi bilan band bo‘lgan ayol bugun shu maskanda ishli ham bo‘ldi.

— O‘n uch yildan buyon farzandlarim bilan uyda qolib, hech qayerda ishlamadim, — deydi Gulchehra Karimova. — Ushbu kunduzgi parvarish markazi ochilgach, tarbiyachi bo‘lib ishga kirdim. Farzandim ham shu yerda, o‘zim bilan birga qatnaydi. Avval nogironligi bo‘lgan farzandim bilan biror joyga borish yoki uni qarovsiz qoldirish juda qiyin edi. Mana shunday kunduzgi parvarish markazi ochilgani biz, ota-onalar uchun juda katta qulaylik bo‘ldi. Farzandimning holatida ijobiy o‘zgarish kuzatildi. Avval so‘zlash va harakatlanishda qiynalar edi. Hozir xatti-harakati ancha yaxshilandi, yozish va boshqa mashg‘ulotlarni bajarishga ham qiziqishi ortdi. Muhimi, farzandlarimiz bilan shug‘ullanish uchun qulay sharoit yaratilgan. Shunday imkoniyat borligidan juda xursandmiz.

Tumandagi Galabek mahallacida yashovchi Sevara Buzrukovaning ham farzandi kunduzgi parvarish xizmatiga jalb etildi. Natijada ayol shaxsiy malakasi uchun vaqt ajratib, magistraturaga tayyorlandi. O‘qishga qabul qilinib, “Toza hudud” korxonasiga ishga joylashdi. Bundan tashqari, oilaning moddiy ta’minotini yaxshilash maqsadida chorva ajratildi, uyiga quyosh paneli o‘rnatib berildi.

— Inson hech qachon bir joyda to‘xtab qolmasligi kerak ekan, — deydi Sevara Buzrukova. — Hayotimdagi qiyinchiliklarga qaramay, harakatdan to‘xtamadim. Onkologik kasallikdan davolangan vaqtlarimda shifokorim ham menga “Siz yengilmasligingiz kerak. Farzandingizdan kuch-quvvat olasiz”, deb dalda bergandi. Atrofimdagi insonlar, yaqinlarim ham menga katta yordam berdi. Magistraturada o‘qish istagimni qo‘llab-quvvatlashdi. O‘qish jarayonida ustozlarim vaziyatimni tushunib, menga yordam qo‘lini cho‘zdi. Ularning ko‘magi juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Farzandim kunduzgi parvarish xizmatiga joylashib, o‘zim ishlash imkoniga ega bo‘ldim.

Ikrom Karvon mahallasida yashovchi Matluba Ro‘zimurodova turmushning turli sinovlariga ko‘p duch keldi. Uning nogironligi bo‘lgan ikki farzandi bor. Albatta, ijtimoiy himoya tizimidagi ko‘mak, manzilli yondashuv ularning muammolarini hal etish imkonini berdi. Jumladan, oilaning sharoitini yaxshilash maqsadida xonadon ta’mirlandi, quyosh paneli o‘rnatildi. Kelini esa nogironligi bor farzandiga qaragani uchun parvarishlovchi sifatida oylik daromad olish imkoniga ega bo‘ldi. Muhimi, yordamga muhtoj inson o‘z muammosi bilan yolg‘iz qolmadi.

Mavluda Tog‘ayeva 37 yildan buyon nogiron farzandini parvarishlab kelmoqda. Turmush o‘rtog‘i onkologik kasallik tufayli vafot etganidan keyin oila yanada og‘ir ahvolga tushib qolgandi. Ushbu xonadon ham bugun davlat ijtimoiy himoyasida. Uyi ta’mirlandi, suv isitish kollektori o‘rnatildi, hammom va isitish tizimi yaxshilandi.

Ijtimoiy himoyaning haqiqiy samarasi ajratilgan mablag‘ yoki ko‘rsatilgan xizmatlar soni bilan baholanmaydi. U inson hayotida yuz bergan ijobiy o‘zgarishlar, ertangi kunga umid, bugundan mamnunlikda namoyon bo‘ladi. Albatta, hozirgi ijtimoiy xizmatning maqsadi inson manfaatiga qaratilgan. Muammoni qayd etish emas, balki hal etish; yordam berish emas, munosib hayotga qaytarish kabi mezonlar orqali minglab oilalarga quvonch ulashilayotgani islohotlarning amaldagi ifodasidir.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

ARIQLARIMIZ SUVGA, KO‘CHALARIMIZ NURGA, QALBIMIZ QUVONCHGA TO‘LMOQDA

Farg‘ona shahridagi “Tinchlik” mahalla fuqarolar yig‘ini sharqda Quvasoy shahriga, janubda Quva tumaniga chegaradosh. Ko‘zdan yiroq, e’tibordan chetda bo‘lgan mahallada aholi turmush tarzi uchun zarur shart-sharoitlar yetarli emasdi. Ta’mirtalab yo‘llar, eski uy-joylar, suv, elektr tarmoqlaridagi cheklovlar, tartibsiz qurilgan xizmat ko‘rsatish shoxobchalari mahalla husniga chipta “yamoq” bo‘lib kelgandi.

Mahalla o‘zgarsa — jamiyat o‘zgaradi

Hozir bu yerdagi hayot tarzi o‘zgardi. Chekka mahalladagi yangi loyiha va tashabbuslarga bugun ko‘pchilik havas bilan qaramoqda. Jumladan, tashlandiq bo‘lib qolgan bo‘sh yerda fuqarolar yig‘ini uchun yangi bino qurib bitkazildi. Tadbirkor Farhodjon Xolyigitov davlat-xususiy sheriklik asosida 3 milliard so‘mlik bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlarini bajardi. Zamonaviy qiyofadagi uch qavatli muhtasham binoda “mahalla yettiligi” emin-erkin ishlashi uchun qulay sharoit yaratilgan. O‘tgan asrning saksoninchi yillari qo‘lbola usulda qurilgan eski mahalla binosi o‘rnida esa nuroniylar maskani, vorkaut va bolalar o‘yin maydonchalari qurildi.

— Mahallamizda 5 mingga yaqin aholi yashaydi. Bugun boshlangan yangilanishlar har bir mahalladoshimiz hayotida namoyon bo‘lmoqda, — deydi fuqarolar yig‘ini raisi Mirzamahmud Ahmadjonov. — Obod ko‘chalar, zamonaviy infratuzilma, yoshlar uchun sport va dam olish maskanlarining barchasi aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda. Hududga “Yangi O‘zbekiston qiyofasi” dasturi doirasida 5 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Ayni kunda Bo‘ston va Fidoyilar ko‘chalarida keng ko‘lamli obodonlashtirish ishlari bajarilmoqda. Elektr ta’minoti bilan bog‘liq muammolar to‘liq hal etilib, quyosh panellari va ko‘cha chiroqlari o‘rnatildi. Piyodalar yo‘laklari, dam olish maydonlari qurilib, hududga yangi hayot nafasi olib kirilmoqda. Mahallamiz tunda ham kunduzdek charog‘on, odamlarning kayfiyati yuqori.

Hududdan o‘tgan tashlama kanal yillar davomida qarovsiz, chiqindilar bilan to‘la edi. Aholi tashabbusi bilan kanal sohillarini obod qilish borasidagi loyiha qo‘llab-quvvatlanib, “Tashabbusli byudjet” orqali 3,5 milliard so‘m yutib olindi. Endi kanalning ikki qirg‘og‘ida zamonaviy kutubxona, Wi-Fi zonalari, ko‘chma savdo shoxobchalari, yashil hududlar va sayr yo‘laklarini o‘zida jamlagan, 24/7 rejimda ishlovchi turizm ko‘chasi bunyod etilmoqda.

Shu paytgacha suv yetishmasligi sabab aholining 80 gektardan ortiq tomorqa ekin maydonlari samarasiz yotgandi. Bunga ham ijobiy yechim topildi.

— Sakkiz sotix tomorqamiz bor. Ammo suvsizlik bois, undan yillar davomida maqsadli foydalana olmaganmiz, — deydi Soyibjon Ashuraliyev. — Mahallamizda 2 ta suv inshooti qurilgani ayni muddao bo‘ldi. Endi tomorqadan yil davomida uch-to‘rt marta hosil olyapmiz. Bu juda katta imkoniyat, farovonlik mahsuli.



Ha, mahallada islohotlar, bunyodkorlik ko‘lami katta. Jumladan, tadbirkor Sodiqjon Xudoyberganov tashabbusi bilan asalari mahsulotlari do‘koni va mahorat maktabi ish boshladi. Tadbirkor qaramog‘ida 2 mingdan ortiq asalari oilasi bor. Ikki qavatli majmuada asalarichilik sohasi uchun kerakli jihoz va tayyor mahsulotlar sotuvi yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari, ariga chaqtirish orqali sog‘lomlashtirish xizmati ko‘rsatuvchi maxsus markaz ham faoliyat boshladi. Ayni kunda fitness-sog‘lomlashtirish markazi qurilyapti.

Tadbirkor Muhammadjon Bo‘tanov mahalla guzari bunyod etilishiga homiylik qilmoqda. Bu yerda bayram tadbirlari o‘tkazish uchun tantanalar zali, milliy madaniy markaz, qardosh xalqlar an’analarini namoyon etuvchi turizm majmuasi, tikuvchilik sexi bunyod etiladi. Ilg‘or tomorqachi Ilhomjon Vosiljonov sa’y-harakati bilan qarovsiz yotgan 80 sotix yerda malina yetishtirish yo‘lga qo‘yildi.

Shu kunga qadar mahalla fuqarolar yig‘inidagi 5 kilometrdan ortiq ichki yo‘llar asfaltlandi, 135 ta eski simyog‘och beton ustunlarga almashtirildi, 1,5 kilometr ariqqa beton qoplamalar yotqizildi.

— Biz yashayotgan ko‘cha 60 yildan buyon ta’mirga muhtoj bo‘lib kelgan, — deydi mehnat faxriysi Odiljon Maxsudov. — Yo‘llarimizda mashina tugul velosipedda yurishga ham imkon yo‘q edi. Taksi, tez yordam chaqirsak, kelishga og‘rinardi. Mana, qilsa bo‘larkan-ku. Mahallamizda asfaltlanmagan ko‘cha qolmadi. Ariqlarimiz suvga, ko‘chalarimiz nurga to‘ldi. Bularning barchasi tinchlik, totuvlik, hamjihatlik mahsuli.

Mahalla taraqqiyotida iqtisodiy loyihalar ham muhim o‘rin tutadi, albatta. Bunda mahallada faoliyat yuritayotgan “yettilik” aholi muammosini shunchaki qayd etish bilan cheklanmay, uning yechimiga ham mas’ul bo‘lgani ish bermoqda. Ayniqsa, oilalarni kambag‘allikdan chiqarish, daromad manbasini yaratish, bandligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilyapti. Shu kunga qadar ishsiz 65 yoshning bandligi ta’minlandi. Ularning 20 nafari kasb-hunarga o‘qitildi. Hokim yordamchisi tomonidan 9 fuqaroga 266 million so‘m imtiyozli kredit, 5 nafariga subsidiyalar ajratiladi. “Mahalla bankiri” esa 8 fuqaroning istiqbolli loyihalari uchun 309 million so‘m miqdorida sarmoya ajratishga ko‘maklashdi. Hududda 45 gektar maydonda “Baqay” sanoat zonasi tashkil etilgan. Unda hozirgacha beshta loyiha hayotga tatbiq etilib, 300 dan ortiq doimiy ish o‘rni yaratildi.

Yaqin istiqboldagi loyihalar dasturiga ko‘ra, yana 38 gektar maydonda xitoylik investorlar bilan hamkorlikda “Kushan” sanoat parkini tashkil etish reja qilingan. Bu yana mingdan ortiq ish o‘rni degani. Shu tariqa mahalla odamlarning orzulari amalga oshib, ertangi kunga ishonchi mustahkamlanayotgan maskanga aylanib bormoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



SHIFOXONALARGA ASOSLANGAN ESKI MODELDAN KASALLIKLARNING OLDINI OLISH VA RAQAMLASHTIRILGAN TIBBIYOTGA O‘TISH BOSQICHI

Ikkinchi milliy dastur sharhi



Suhrob NORQULOV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda kelgusi taraqqiyotimizning yettita milliy dasturini belgilab berdi. Ushbu dasturning ikkinchi yo‘nalishi xalqimizning sog‘lom bo‘lishi va uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlardan iborat. Masalan, unda aholi salomatligi bilan bog‘liq davlat xarajati kelgusi besh yilda ichki mahsulotga nisbatan 5 foizga yetkazilishi belgilangan.

Mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimida keyingi yillardagi yangilanishlar sohani shifoxonalarga asoslangan eski modeldan kasalliklarning oldini olish va raqamlashtirilgan tibbiyotga o‘tish bosqichiga olib chiqmoqda. Bunda soha boshqaruvi davlat siyosati darajasida tubdan yangilanib, tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish va sifat nazoratini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

So‘nggi yillarda tibbiyot sohasiga 230 trillion so‘m yo‘naltirildi. Buning hisobiga joylarda ikki yuzga yaqin yangi poliklinika va shifoxona ishga tushirildi, 1244 tasi rekonstruksiya qilindi. Ularga yangi tibbiyot uskunalari va jihozlar sotib olindi. Bir millionga yaqin kishi va oila a’zolari, 1200 ga yaqin urush va mehnat faxriylari sanatoriylarda sog‘lomlashtirildi. 800 mingdan ziyod bola uchun yozgi dam olish uyushtirildi.

2024-2025-yillarda 3000 dan ziyod tibbiyot muassasasi lokal tarmoq bilan ta’minlandi. Tibbiyot sohasiga DMED yagona elektron axborot tizimi joriy etildi. Mazkur axborot tizimida 36 milliondan ziyod yurtdoshimizning tibbiyot bazasi, salomatligiga oid ma’lumotlar shakllantirildi. Tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi elektronlashtirildi. Tez tibbiy yordamning bemorlarga yetib borish muddati 25-30 daqiqadan 10-15 daqiqagacha qisqardi.

2025-yilga kelib, birlamchi tibbiy xizmat ko‘rsatish qamrovi 60 foizga yetkazildi. Aholi salomatligini aniqlashga yordam beruvchi diagnostika tadbirlarining 400 ga yaqini viloyatlarga, kaminvaziv operatsiyalar esa tumanlardagi tibbiyot markazlariga tushirildi.



Bularning barchasi mamlakatimizda aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, pirovardida yurtdoshlarimizning salomatligini mustahkamlab, uzoq umr ko‘rishiga zamin hozirlamoqda.

Prezidentimiz milliy dasturda tibbiyotda profilaktikani kuchaytirish orqali aholi salomatligini asrash modeliga o‘tish zarurligini qayd etdi. Darhaqiqat, bu juda dolzarb vazifa. O‘z navbatida, bugunning talabi hamdir. Binobarin, ushbu model doirasida belgilangan profilaktik chora-tadbirlar aholining tibbiy savodxonligini oshirish, xususan, sog‘lom turmush tarzi uchun zarur imkoniyatlardan foydalanish, jismoniy mashg‘ulotlarning foydali jihatlarini bilish, ovqatlanish va dam olish tartiblariga rioya etishga o‘rgatishni nazarda tutadi.

Maxsus tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, bugun aholi o‘rtasida kam harakatlilik, bir joyda uzoq o‘tirish yoki yotish davr xastaligiga aylandi. Maktab o‘quvchilarining 60 foizga yaqinida kam harakatlilik tufayli semirish, jismoniy mehnatni yoqtirmaslik kabi kasallik va zararli odatlar tarqalgan. Kompyuter va mobil telefondan uzluksiz foydalanadigan yoshlarning 45 foizi jismoniy tarbiya mashqlarini yoqtirmasligini, deyarli 40 foizga yaqini esa toza havoda yugurish, mashq qilish, futbol o‘ynashdan ko‘ra uyda intellektual o‘yinlar bilan shug‘ullanishni afzal bilishini aytgan.

Mutaxassislar fikricha, muntazam jismoniy mashqlar bajarish yuqori qon bosimi xastaligi, yurak-qon tomir tizimi, ovqat hazm bo‘lishi va uyquning buzilishi, mushaklarning zaiflashuvi va deformatsiyaga uchrashi, varikoz paydo bo‘lishi, immunitet pasayishi, qon aylanishining sekinlashuvi kabilarning oldini oladi. Terapevtik mashqlar — piyoda yurish, yugurish, suzish, velosiped haydash, sayohatlarga borish, harakatli o‘yinlarning organizmga ijobiy ta’sirini unutish barchamizga qimmatga tushishi mumkin. Har kuni 15-20 daqiqa mashq qiladigan odamning ish unumdorligi mashq qilmaydiganlarnikiga nisbatan 20 foiz yuqori bo‘ladi va u og‘ir, murakkab vazifalarni zimmasiga olishdan qo‘rqmaydi. Uning jamoa bilan til topishib, hamkorlikda samarali ishlashi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

Respublikamizda terapevtik chora-tadbirlardan tizimli, aniq va maqsadli foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, yurtimizda vabo kasalligi kuzatilmaydi, biroq uning chetdan kirib kelish ehtimoli kam bo‘lsa-da, yo‘q emas. Buning oldini olish uchun davlat chegaralarida 55 ta sanitariya, karantin punkti tashkil etilgan. O‘tkir yuqumli ichak xastaligiga uchragan kishilarga ushbu kasallik tarqalishining oldini olish maqsadida profilaktika uchun tezda tibbiy yordam ko‘rsatiladi.

Birgina 2025-yilda profilaktika tadbirlari o‘tkazuvchi 4000 dan ortiq murabbiy, 58 mingdan ziyod shifokor va 26 mingdan ortiq o‘rta tibbiyot xodimi o‘qitilgan. Tumanlar bo‘yicha qarasak, har bir poliklinika va tibbiy shifoxonada profilaktika terapevt ishlarini

Buyuk o‘zbek yo‘li



o‘tkazishga tayyor mutaxassis borligini ko‘ramiz.

Shu bilan birga, aholining tibbiy savodxonligini oshirish jarayoni izchil davom ettirilishi zarur. Prezidentimiz tibbiy profilaktikani kuchaytirishga alohida e’tibor qaratayotgani bejiz emas. Xalqimizda “Kasalni davolagandan ko‘ra oldini olgan afzal” degan hikmat bor. Ha, profilaktika bir jihatdan ortiqcha xavotirsiz, yo‘qotishlarsiz, boshqa jihatdan esa arzon tushadi.

Yangi O‘zbekistonda aholi salomatligini asrash va tibbiy madaniyatini yuksaltirish, sohaga innovatsiyalarni qo‘llash orqali ilg‘or xalqaro standartlarni joriy etish borasida salmoqli tajriba to‘plangan. “Toza qo‘llar” dasturini bunga misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur dasturdan ko‘zlangan asosiy maqsad — yosh avlodda sanitariya-gigiyena madaniyatini shakllantirish, sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish, ko‘p uchraydigan yuqumli kasalliklarga qarshi kurash samaradorligini oshirishdir.

Bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklarning 35-40 foizi sanitariya-gigiyena madaniyatining yetishmasligidan kelib chiqadi. Mana shu raqamning o‘zidanoq terapevtik choralar, sanitariya targ‘iboti nechog‘liq zarurligini anglaymiz. Davlatimiz rahbari ko‘rsatmasiga muvofiq, har bir muassasa va tashkilotlar, ayniqsa, ta’lim maskanlarida sanitariya-gigiyena vositalariga amal qilinadigan sharoitlar yaratish nazarda tutilgan.

Keyingi yillarda tibbiy sug‘urta masalasi tez-tez muhokama markaziga chiqmoqda. Bugun ba’zi hududlarda undan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tizimning samarasi, aholiga keltiradigan manfaati nuqtai nazaridan Prezidentimiz davlat tibbiy sug‘urtasining har bir xonadonga kirib borishini ustuvor vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo‘yayotganini alohida e’tirof etish lozim.

Salomatligimizda to‘g‘ri ovqatlanish masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Oziq-ovqat organizmga quvvat beradi. Ichki organlarning kerakli me’yorda ishlashini ta’minlaydi. Qon aylanishini yaxshilaydi va oshqozonni qiynalishdan asraydi. Biroq keyingi yillarda semirish kasalligi ko‘paymoqda. Tibbiyotda abdominal semizlik degan ibora bor. U qorin sohasida paydo bo‘ladigan semizlik, yog‘ to‘planishini anglatadi. Agar ayollarda qorin, bel aylanasi 80, erkaklarda 94 santimetrdan oshsa, bu abdominal kasallik alomatidir.

Semizlik erkin harakat qilishimizga xalal beradi, yurak ishlashiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Abdominal semizlik qandli diabet (2-turi), qonda xolesterin oshishi, ateroskleroz, bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi, qon tomirlarida tromblar, insult, infarkt, saraton kabi kasalliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud.

> **“O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q. Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuchning o‘zi yo‘q. Biz yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz!”.**

Mutaxassislar ko‘proq organizm hazm qiladigan ovqatlar: meva-sabzavot, parhezli taomlar yeyishni maslahat beradi. Abdominal semizlikka uchragan odam yog‘li ovqatlar, spirtli ichimliklar, shirinlik yeyishdan o‘zini tiyishi darkor. Unga kuniga 30-40 daqiqa piyoda yurish, qo‘l va oyoqlarini har tomonga silkitib qadam tashlash tavsiya etiladi.

Milliy dasturda ixtisoslashgan tibbiyotda raqobat muhitini kuchaytirish uchun dunyoning eng nufuzli kamida 5 ta klinikasi tajribasini mamlakatimizga olib kelish nazarda tutilgan. Bugun ham yurtimizda AQSH, Germaniya, Hindistondan kelgan vrachlar faoliyat yuritadi. Demak, bu yo‘nalishda innovatsiyalarni kengaytirish, aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlarni jahon standartlari darajasiga ko‘tarish ishlari izchil davom ettiriladi.

Ba’zi klinikalarimizda xizmat haqi juda yuqori, aholi daromadiga mos emas. Chunki klinikalar o‘rtasida raqobat yo‘q. Bunday sharoitda xizmat haqi yuqori bo‘lishi tabiiy. Milliy dasturda belgilangan vazifalar esa sohada raqobat muhitini kuchaytirish orqali aholiga sifatli va arzon tibbiy xizmat ko‘rsatilishiga zamin hozirlashi bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimiz yangi O‘zbekistonni zamonaviy tibbiyot, farmatsevtika, biotexnologiya va tibbiy ta’lim taraqqiy etgan mamlakatga aylantirish maqsadini ilgari suradi. Darhaqiqat, bu har jihatdan foydali, ezgu maqsad. Masalan, bu maqsadga erishish orqali, birinchidan, aholini sifatli tibbiy xizmatga qamrab olish mumkin. Ikkinchidan, bu jihat iqtisodiy barqarorlikka ham bevosita, ham bilvosita katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun ham keyingi yillarda tibbiyot ta’limida innovatsion izlanishlar jadal davom etmoqda. O‘tgan yili Toshkent davlat tibbiyot universiteti va Urganch davlat tibbiyot instituti faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, tibbiyot ta’limi yo‘nalishidagi 8 ta muassasa xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgani ham ayni maqsad yo‘lidagi yangilanishlarga misol.

Zamon rivojlanishda davom etar ekan, yangi g‘oyalar, yo‘nalishlar va axborot texnologiyalari paydo bo‘ladi. Bu esa doim ilmiy izlanishda bo‘lishni taqozo etadi. Bizda o‘rta tibbiy xodimlar tayyorlash tizimini kengaytirish zarur. Yaxshi mutaxassis tayyorlash uchun kollej — universitet tizimini ishlab chiqish, oliy tibbiy muassasaga tibbiyot kolleji orqali qabul qilish maqsadga muvofiq.

Shu o‘rinda yana bir bor “Toza qo‘llar” dasturi doirasidagi profilaktika va sanitariya-gigiyena ishlariga to‘xtalsak. Dasturda 6000 ga yaqin maktabni issiq suv bilan ta’minlash maqsadida maxsus geliokollektorlar o‘rnatilishi belgilangan. Ko‘pgina tuman va qishloq maktablarida qo‘l yuvish joylari yetishmaydi. Eski loyihalarda ular nazarda tutilmagan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida davlatimiz ushbu kamchilikni bartaraf etishni zimmasiga olyapti. Ayrim jamoat tashkilotlarida suv zaxirasi bo‘lishi lozim. Buning uchun suv saqlanadigan maxsus rezervuarlar qurilishi, baklar o‘rnatilishi kerak. “Toza qo‘llar” dasturida ushbu ishlar uchun 780 milliard so‘m ajratilgan.

Yana bir yangilik shuki, yangi qurilayotgan maktablar, o‘quv yurtlari va korxonalar, maishiy xizmat shoxobchalari endi sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq bo‘lishi talab qilinadi. Ularda nafaqat qo‘l yuvish, shuningdek, dushda cho‘milish imkoniyatlari bo‘lishi lozim.

Bu chora-tadbirlar aholi, ayniqsa, yoshlarning salomat o‘sishi uchun o‘ta muhim. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi barcha xastaliklarning 80 foizi notoza suv orqali o‘tadi. Ifloslangan suvda qorin tifi, dizenteriya, virusli gepatitning A turi, vabo, ichak kasalliklarini tarqatuvchi mikroblar bo‘ladi. Ushbu mikroblar yosh, chiniqmagan organizmga tez yuqadi va salomatlikni xavf ostiga qo‘yadi. Shuning uchun respublikamizdagi barcha cho‘milish havzalari, ochiq basseynlar sanitariya-gigiyena ko‘rigidan o‘tkaziladi. Ifloslangan suv bor joylar dezinfeksiya qilinadi yoki vaqtincha berkitiladi.

Yangi O‘zbekistonda aholi salomatligini asrash va jamoat joylarida sanitariya-gigiyena talablariga rioya etishni Sanitariya-epidemologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi nazorat qiladi. Shuning uchun ham “Toza qo‘llar” dasturidagi vazifalarni bajarish ushbu tizim zimmasiga yuklatilgan.

Inson salomatligi uchun toza havo, oqar suvda cho‘milish, tog‘oldi hududlarda dam olish, sayohatlar muhim ahamiyatga ega. Shaharda yashovchi yurtdoshlarimizning dam olish kunlari tog‘li yoki daryoli hududlarga chiqishi odatiy holga aylangan.

Jahon iqtisodiyotida turizm istiqbolli sohaga aylangan. U chetga mahsulot chiqarmaydi, ammo investitsiya olib kiradi. Kishining ruhiyatini ko‘tarib, yon-atrof va tabiat bilan inoq yashashga undaydi. Bugun mamlakatimizda turizm eksporti 1,6 karra oshib, 3,5 milliard dollarga yetgan. O‘tgan sakkiz yilda sohaga 6,5 milliard dollar sarmoya kiritilgan, 130 ming mehmon o‘rni ochilgan.

Prezidentimizning 2025-yil 19 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ichki turizmdan keng foydalanish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Har yili yurtimizda ichki turizmga 3 milliondan ziyod kishi jalb qilinadi. Ularning 70-75 foizga yaqini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir.

Bu yerda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan asosiy jihat shundaki, tog‘oldi va ko‘l, daryo bo‘ylariga chiqib dam olish odamni ham jismonan, ham ruhan sog‘lomlashtiradi. Bunday vaziyatda shahar sharoitiga moslashgan organizm noodatiy, ammo ruhiyatga ijobiy ta’sir etuvchi tabiiy muhitga tushib qoladi. Nafaqat yon-atrof, tabiat, shuningdek, qishloq turmush tarzi, odamlarning soddadil, ochiq muomalasi shaharlik sayyohga ijobiy ta’sir qilib, uni hayot mohiyati haqida o‘ylashga majbur qiladi. Darhaqiqat, mashhur faylasuflardan biri “Inson tabiat qo‘yniga qaytib, o‘zining mohiyatini anglaydi”, deganida haq edi.

Zamonaviy dunyo odamlari bo‘sh vaqtini asosan uyda o‘tkazishga intiladi. Chunki uyimizdagi qulay sharoit bizni o‘ziga bog‘lab qo‘ymoqda. Qulaylik yaxshi, albatta. Lekin uy sharoitida odamning erkin harakat qilish, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish imkoniyati torayadi. Natijada kam harakatlilik va u bilan bog‘liq kasalliklar paydo bo‘ladi. Shuning uchun mutaxassislar uy sharoitida jismoniy mashqlar bajarishni tavsiya etadi.

Salomatlik to‘g‘risida gap ketar ekan, buyuk donishmandlardan birining quyidagi iborasi yodga tushaveradi: “Barcha lazzatni tatib ko‘rdim, lekin ofiyatdan ulug‘ ganj topmadim”. Ofiyat — sihat-salomatlik degani. Bu xalqona va purhikmat naql salomatlikdan ulug‘ boylik yo‘qligini yodimizga solib turadi. Xalqimiz salomatligi haqida qayg‘urish va bu borada zarur chora-tadbirlar ko‘rishni davlatimiz o‘z zimmasiga olgan ekan, bu oliyjanob maqsad besamar qolmasligi, shubhasiz.

O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q. Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuchning o‘zi yo‘q. Biz yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz!”.

Kelgusi yildan boshlab suvni tejaydigan texnologiya o‘rnatganlarga pul berishda tanish-bilishchilik o‘tmaydi. Hammasi kompyuterlashtirilgan tizim orqali, hosil sifati va suv tejalganiga qarab avtomatik hisoblanadi. Agar fermer sug‘urta qildirib, 3 yil davomida zarar ko‘rmasa, to‘rtinchi yildan boshlab sug‘urta to‘loviga 10 foizdan 20 foizgacha chegirma oladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 8-oktabr, 208-son

www. yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

AGRAR SOHADA TAVAKKALCHILIKLARNI BOSHQARISH

Sharh

qishloq xo‘jaligida yo‘qotishlarni bartaraf etishda dolzarb ahamiyatga ega



Jahongir GALAYEV,
O‘zbekiston fermerlari kengashi
bosh mutaxassisi

Bugun dunyoda yuz berayotgan iqlim o‘zgarishlari, cho‘llashish, suv tanqisligi kabi global muammolar, qolaversa, aholi sonining muttasil ortib borishi barcha davlatlar uchun oziq-ovqat xavfsizligini kun tartibidagi asosiy masalaga aylantirdi. Bunday holat mamlakatimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Yurtimiz qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ulkan salohiyatga ega. Aholi bandligi, bozorlarimiz to‘kinligidan tortib, eksportdan qo‘shimcha daromad topishgacha bo‘lgan juda ko‘p masalalar aynan shu soha bilan bog‘liq. Shuning uchun so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va sohada bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Bu esa, birinchi navbatda, yuqori samaradorlikka erishish, ichki bozorlarimizda to‘kin-sochinlik, narxlar barqarorligini ta’minlash bilan birga jahon bozoridagi yuqori talabni o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiysi, tizim davlatimiz rahbarining doimiy diqqat e’tiborida. Chunki qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotimizning to‘rtdan bir qismini tashkil etadigan muhim soha. Buning zamirida xalqimiz farovonligi, narx-navo barqarorligi va qanchadan qancha ish o‘rinlari yotibdi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish muhim yo‘nalish sifatida belgilangan.

Prezidentimizning joriy yil 28-sentabrdagi “Agrar sohada moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirish va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralarini kengaytiradi. Shuningdek, hujjat davlat subsidiyalarini aniq ko‘rsatkichlarga bog‘lash hamda sohada tavakkalchiliklarni boshqarish va sug‘urta mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Hujjatga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy yilda paxta xomashyosining har bir tonnasi uchun 500 ming so‘mdan, hosildorlik sun’iy yo‘ldosh orqali kosmik monitoring qilinib, o‘z yerida paxta ekib, 30 sentnerdan yuqori hosil olgan klasterlarga gektariga 1,5 million so‘mdan beriladi. Bu summa paxtani birja savdolari orqali realizatsiya qilganda to‘lab beriladi.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi haqiqatda ekilgan maydonlar bo‘yicha tasdiqlangan ma’lumotlar asosida bir hafta muddatda subsidiya miqdorini hisoblab chiqadi hamda mablag‘ ajratish bo‘yicha hisob-kitoblarni Agrar sohada to‘lovlar agentligiga taqdim etadi.

2027-2029-yillarda chorvachilik xo‘jaliklariga asosiy maydonlarda ozuqa ekinlari yetishtirilgani uchun har bir gektar ekin maydoniga Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining xulosasiga asosan yillik 500 ming so‘m, 2026-yil 1-oktabrdan 2027-yil 1-iyunga qadar tadbirkorlik subyektlariga sovitilgan mol va qo‘y go‘shtini import qilishda, har bir kilogramm go‘sht uchun 2,5 ming so‘m miqdorida pul beriladi.

Kelgusi yildan boshlab suvni tejaydigan texnologiya o‘rnatganlarga pul berishda tanish-bilishchilik o‘tmaydi. Hammasi kompyuterlashtirilgan tizim orqali, hosil sifati va suv tejalganiga qarab avtomatik hisoblanadi. Agar fermer sug‘urta qildirib, 3 yil davomida zarar ko‘rmasa, to‘rtinchi yildan boshlab sug‘urta to‘loviga 10 foizdan 20 foizgacha chegirma oladi.

Shu bilan birga, dalaga zarar yetsayu, yaqin atrofda ob-havo stansiyasi bo‘lmasa, zarar miqdori sun’iy yo‘ldosh suratlari va kosmik ma’lumotlar bilan ham tasdiqlanaveradi. Ortiqcha qog‘ozbozlikka chek qo‘yiladi.

Yana bir muhim jihat. Prezidentimizning 2026-yil 7-apreldagi “Aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, tadbirkorlik subyektlariga mol va qo‘y go‘shtini havo transportida import qilishda har bir kilogramm go‘sht uchun ajratiladigan subsidiya miqdori 1,2 AQSH dollari etib belgilanadi hamda ajratish muddati 2027-yil 1-iyunga qadar uzaytirildi.

2027-yil 1-yanvardan boshlab 2028-yil 1-yanvarga qadar huquqiy tajriba tariqasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy etish xarajatlarining bir qismini qoplash bo‘yicha subsidiyani natijaga asoslangan “Natijaviy subsidiya” tizimi asosida ajratish tartibi joriy etiladi. Tizim doirasida subsidiya miqdori uni oluvchining xarajatlari bilan bir qatorda hosildorlik, mahsulot sifati, saqlash, qayta ishlash yoki eksport ko‘rsatkichlari oshishi, sarflanadigan resurslar maqbullashtirilishi, energiya tejamkor qurilma, uskunalar ishlatilishi, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi toifasi kabi ko‘rsatkichlar asosida belgilanadi.

Muhimi, bu natija ko‘rsatkichlariga erishilganligi inson omilisiz avtomatik ravishda davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlaridagi ma’lumotlar asosida tasdiqlanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi globallashgan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun mamlakatimiz nafaqat miqdor ko‘rsatkichlari, balki raqobatbardoshlik, sifat, innovatsiya va shaffoflik mezonlari bo‘yicha ham oldinda bo‘lishi zarur. Shu bois, agrar sohadagi barcha islohotlar zamonaviy standartlar, xalqaro hamkorlik va bozor mexanizmlariga mos ravishda kechayotgani bilan muhim ahamiyatga ega.




NATIJAGA AYLANGAN KO‘MAK

Mulohaza

Qishloq xo‘jaligida hayot hamisha tabiat bilan yonma-yon kechadi. Yomg‘ir o‘z vaqtida yog‘sa, dehqonning ko‘ngli xotirjam tortadi. Suv kamaysa, tashvish ortadi. Birgina do‘l bir necha oylik mehnatga zarar yetkazishi mumkin. Qurg‘oqchilik esa butun mavsum rejasini o‘zgartirib yuboradi. Shuning uchun dehqon yerga ishonch bilan urug‘ qadagani kabi tabiatning o‘zgaruvchanligini ham hisobga olib yashaydi.

Bugun dunyo qishloq xo‘jaligi oldida turgan manzara o‘zgarib bormoqda. Aholi ko‘paygani sayin oziq-ovqatga ehtiyoj ortadi. Shu bilan birga, suv va yer kabi tabiiy resurslarga bosim kuchaydi. Iqlim o‘zgarishi esa qishloq xo‘jaligi uchun avvaldan ma’lum xavflarni yanada murakkablashtiryapti. Shu sababli zamonaviy agrar iqtisodiyotda hosil miqdori bilan birga uni qanday resurs evaziga yetishtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Kamroq suv bilan ko‘proq hosil olish, energiyani tejash, yer unumdorligini saqlash va tabiiy xavflarga oldindan tayyor turish endi faqat fermerning shaxsiy manfaati bo‘lib qolmay, oziq-ovqat xavfsizligining muhim shartiga aylangan.

Bu o‘zgarishlar ta’siri O‘zbekistonda ham tobora yaqqol sezilyapti. Mamlakatimizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, yer unumdorligini saqlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va fermer daromadini



barqarorlashtirish masalalari kun tartibining oldingi qatoriga chiqdi. Bunday sharoitda davlatning agrar sohani qo‘llab-quvvatlash siyosati yangi mazmun bilan boyishi tabiiy. Endi gap faqat fermerga mablag‘ ajratishda emas, bu mablag‘ qanday natija berishi, qancha resurs tejalishi va qancha qo‘shimcha mahsulot yaratilishi haqida bormoqda.

25-sentabr kuni davlatimiz rahbariga agrar sohada subsidiyalarni ajratish va sug‘urtalash tizimlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdim etilgani ana shu jarayonning muhim bosqichlaridan birini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan berilayotgan ko‘mak ko‘lami kengayib, subsidiyalarni ajratish jarayonlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Joriy yilda subsidiyalar 29 ta yo‘nalish va 91 ta turga yetkazilib, bu maqsadlar uchun 2,7 trillion so‘m mablag‘ ko‘zda tutilgan. Raqamning o‘zi katta. Ammo iqtisodiyotda har qanday raqamning qiymati uning ortidan keladigan natija bilan o‘lchanadi. Ajratilgan mablag‘ fermerning imkoniyatini qanchalik kengaytirdi, ishlab chiqarish samaradorligini qay darajada oshirdi, suv va energiya sarfiga qanday ta’sir ko‘rsatdi — masalaning asosiy mohiyati ana shu nuqtada namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda, subsidiyalarni oddiy xarajatni qoplash vositasidan natijaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmiga aylantirish taklifi agrar siyosatdagi muhim yondashuvni ifodalaydi. Davlat yordamining mazmuni ham o‘zgarmoqda. Avval muayyan xarajatni qoplash asosiy mezon bo‘lgan bo‘lsa, endi shu mablag‘ evaziga qanday samara olingani muhimlashadi. Hosildorlik, suv va energiya tejamkorligi, sarflangan resurs hisobiga olingan mahsulot hajmi kabi ko‘rsatkichlar subsidiya natijasini baholashda asosiy mezonga aylanishi kutilmoqda. Bu bir qarashda oddiy iqtisodiy mexanizmdek ko‘rinadi. Aslida, uning zamirida davlat mablag‘iga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishdek katta tamoyil yotadi.

Mablag‘ni qayerga va qanday yo‘naltirish mamlakatning ertangi iqtisodiy imkoniyatlariga ta’sir qiladi. Agar subsidiya yangi texnologiya joriy etilishiga, suv tejalishiga, hosildorlik oshishiga va fermer daromadi barqarorlashishiga xizmat qilsa, bu mablag‘ iqtisodiy qiymat yaratadi. Agar u faqat bir martalik xarajatni qoplash bilan cheklansa, uzoq muddatli ta’siri kamroq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun natijaviy subsidiya modeli davlat yordamining o‘ziga emas, uning qaytishiga, ya’ni jamiyat uchun qanday qiymat yaratishiga e’tibor qaratadi.

Buning eng yaqqol misollaridan biri suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishda ko‘rinadi. Suv tejash O‘zbekiston sharoitida yer unumdorligi, fermerning xarajati, hosil barqarorligi va kelajakdagi oziq-ovqat xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun texnologiyani o‘rnatishning keyingi samarasi muhim. Subsidiya berilganidan keyin ikki-uch yil davomida suv sarfi kamayishi, hosildorlik kuzatilishi shu maqsadga xizmat qiladi. Texnologiya samara bersa, uning iqtisodiy va ijtimoiy qiymati ham namoyon bo‘ladi.

Bu yerda yana bir muhim jihat bor. Tejalgan suvning qiymati faqat fermer xo‘jaligi bilan cheklanmaydi. Bir xo‘jalikda tejalgan suv boshqa bir maydon uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Minglab xo‘jaliklarda yo‘lga qo‘yilgan tejamkorlik esa mamlakat miqyosida katta resursga aylanadi. Demak, suvni tejash bir fermerning xarajatini kamaytirish bilan birga butun jamiyatning kelajak imkoniyatlarini asrashga xizmat qiladi. Bugungi agrar siyosatda resurs tejamkorligining tobora muhim mezonga aylanayotgani ham shu bilan izohlanadi.

Yangi yondashuvning yana bir muhim jihati subsidiya oluvchilarning elektron pasportini shakllantirish va natijalarni onlayn kuzatib borish bilan bog‘liq. Davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlaridan ma’lumotlarni inson omilisiz olish jarayonlarni ancha shaffoflashtirishi mumkin. Bu fermer uchun ham muhim yengillik. Chunki uning asosiy vaqti hujjat to‘plash va idorama-idora yurishdan ko‘ra, yerga, ekinga va ishlab chiqarishga sarflanishi kerak. Raqamlashtirishning haqiqiy samarasi ham ana shunda — texnologiya insonning ishini murakkablashtirmasdan, aksincha, uning vaqtini qadrlashida.

Biroq raqamlashtirishning o‘zi hali natija emas. Fermer o‘z ko‘rsatkichlari qanday baholanayotganini tushunishi, qarorlar aniq ma’lumotlarga asoslanishi va tizim barcha uchun bir xil ishlashi muhim. Ana shunda raqamli tizim oddiy elektron platforma bo‘lib qolmay, davlat va fermer o‘rtasidagi yangi munosabatlarning asosiga aylanadi.

Subsidiyaning natijaga bog‘lanishi bilan birga sug‘urta tizimini takomillashtirishga e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki fermer uchun natija qanchalik muhim bo‘lsa, shu natijani xavfdan himoya qilish shunchalik ahamiyatli. Bir necha oylik mehnatni bir kunda yo‘qotish ehtimoli bor ekan, qishloq xo‘jaligida barqaror ishlab chiqarishni faqat subsidiya bilan ta’minlab bo‘lmaydi. Bu yerda sug‘urta iqtisodiy himoya vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Bugun “Agrosafe” axborot tizimi orqali elektron ariza berishdan tortib, shartnoma va polisni rasmiylashtirish, monitoring, ekspertiza hamda tovon pulini to‘lashgacha bo‘lgan jarayonlarning raqamlashtirilayotgani sug‘urta xizmatlarini soddalashtirishga xizmat qilmoqda. Qamrovni bog‘ va uzumzorlardagi ko‘chat va daraxtlar, import qilingan chorva, tasodifiy hodisalar bilan bog‘liq xavflarga kengaytirish, chorvachilik, polizchilik, kartoshka va piyoz yetishtirish uchun yangi sug‘urta mahsulotlarini joriy etish rejalari esa sohada xavflarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Bu yerda sug‘urtaga bo‘lgan qarashning o‘zi ham o‘zgarmoqda. Ilgarigi tushunchada sug‘urta ko‘proq zarar yuz bergandan keyin tovon to‘lash bilan bog‘lanar edi. Yangi yondashuv esa xavfning oldini olishga ham e’tibor qaratadi. Sug‘urta mukofotining 35 foizini maxsus jamg‘armada shakllantirib, chorvachilikda vaksinatsiya, profilaktika va veterinariya xizmatlariga, paxta va g‘allachilikda biologik himoya tadbirlariga, bog‘dorchilik va uzumchilikda tabiiy ofatlardan



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

himoya vositalarini o‘rnatishga yo‘naltirish taklifi shu ma’noda ahamiyatli. Zararni kutishdan ko‘ra uning oldini olishga mablag‘ sarflash iqtisodiy jihatdan ham, inson mehnatini asrash nuqtai nazaridan ham mantiqiy yondashuvdir.

Qishloq xo‘jaligida xavfni boshqarish madaniyati shakllanishi fermerning o‘ziga ham katta imkoniyat beradi. U endi faqat tabiatga ishonib qolmaydi, balki xavfni hisoblaydi, profilaktika choralarini ko‘radi, sug‘urtadan foydalanadi va xo‘jaligining barqarorligini oldindan o‘ylaydi.

2027-yilda 45 mingta qishloq xo‘jaligi korxonasini sug‘urta bilan qamrab olish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sug‘urta qamrovini 60 foizga yetkazish, 500 ta mustaqil ekspert tayyorlash va sug‘urta xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish maqsadlari tizimni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Raqamlarning har biri ortida muayyan vazifa bor. Sug‘urta qamrovi kengayishi xavflarni kengroq taqsimlashga, mustaqil ekspertlar tayyorlanishi zararni xolis baholashga, raqamlashtirish esa jarayonlarni tezlashtirish va shaffoflashtirishga xizmat qilishi kerak.

Eng muhimi, subsidiya va sug‘urtaga bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida qaralmoqda. Subsidiya fermerga samarali ishlash uchun imkoniyat yaratadi. Sug‘urta esa shu mehnat natijasini turli xavflardan himoya qiladi. Subsidiya resursdan unumli foydalanishni rag‘batlantirsa, sug‘urta xavfni oldindan boshqarishga o‘rgatadi. Raqamlashtirish esa ikkala jarayonni ham shaffof va manzilli qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi islohotlar yagona agrar iqtisodiy tizimning turli qismlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Dunyoda qishloq xo‘jaligining kelajagi tobora shu mantiq asosida shakllanmoqda. Ilg‘or texnologiyalar, aniq ma’lumotlar, resurs tejamkorligi, sug‘urta mexanizmlari va iqlim xavflariga moslashish masalalari agrar siyosatning muhim yo‘nalishlariga aylanmoqda. Aholi ehtiyojini qondirish uchun mavjud resurslardan yanada samarali foydalanishga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda subsidiyalarni natija bilan bog‘lash, suv tejovchi texnologiyalarni rag‘batlantirish va sug‘urtada profilaktikaga urg‘u berish ham ana shu global ehtiyojlarning milliy sharoitdagi amaliy ifodasidir.

Fermer uchun esa bu yangi mas’uliyat degani. Davlat ko‘magi imkoniyatni kengaytiradi, ammo natijani insonning mehnati belgilaydi. Yerga e’tibor, suvga tejamkor munosabat, texnologiyadan oqilona foydalanish va xavfni oldindan hisoblash fermerning raqobatbardoshligini belgilab boradi. Shu bois, agrar sohadagi yangi yondashuvning mohiyatini birgina “subsidiya” yoki “sug‘urta” so‘zi bilan ifodalab bo‘lmaydi. Gap aslida mehnatga munosabat haqida ketmoqda. Mehnatni qo‘llab-quvvatlash kerak, ammo uning samarasi ham ko‘rinishi lozim. Resursdan foydalanish mumkin, ammo uni isrof qilish mumkin emas. Xavf bor, ammo uni taqdirga tashlab qo‘yish shart emas. Davlat imkoniyat yaratadi, jamiyat esa shu imkoniyatning natijasini ko‘radi.

Daladagi bir urug‘ bugun yer bag‘riga singadi. Uning hosilga aylanishi uchun suv, mehnat, vaqt va sabr kerak. Ba’zan uni tabiatdan himoya qilish, ba’zan yangi texnologiya bilan qo‘llab-quvvatlash, ba’zan esa kutilmagan xavfdan asrash talab etiladi. Demak, hosil faqat urug‘dan emas, unga yaratilgan sharoitdan ham paydo bo‘ladi. Davlat siyosati, fermer mehnati, zamonaviy texnologiya va sug‘urta tizimi ana shu sharoitning tarkibiy qismlaridir.

Bugun ajratilgan mablag‘ ertaga qancha hosilga aylanadi, tejalgan suv kelajakda qancha imkoniyat yaratadi, oldindan ko‘rilgan chora nechta xo‘jalikni zarardan asraydi? Islohotlarning samarasi ana shu natijalarda namoyon bo‘ladi. Yer esa bu haqiqatni har mavsumda yana bir bor isbotlaydi. Bugun unga nima bersak, ertaga shu mehnatning natijasini olamiz.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

Bundan bir asrdan ziyod vaqt oldin ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”, deb yozgan edi. Bugun bu hikmat yangi mazmun kasb etib, davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylangani har bir ziyolini, har bir ustoz va murabbiyni quvontiradi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

2026-yil 8-oktabr, 208-son

TA’LIM VA ILM-FANDA yangi davr



Tahlil

Har bir xalq tarixida shunday davrlar bo‘ladiki, ularda qabul qilingan qarorlar bir necha avlod taqdirini belgilab beradi. Shu ma’noda, Prezidentimizning 2026-yil 3-oktabrdagi farmoniga muvofiq, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining yagona Ta’lim va ilm-fan vazirligi sifatida qayta tashkil etilishi mamlakatimiz ma’rifiy hayotida yangi sahifa ochdi. Ushbu islohotning asosiy maqsadi ta’lim, tarbiya va ilm-fanning yaxlit tizimini zamon talablari asosida tashkil etish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish hamda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni yangi darajaga olib chiqishdan iborat. Bunda ta’limning barcha turlari o‘rtasidagi uzviylik va bardavomlikni ta’minlash, maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlar hamda ilmiy faoliyatni qamrab olgan yagona samarali boshqaruv tizimini joriy etish, bu tizimning jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish ko‘zda tutilgan.



Akrom MALIK,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Tabiiyki, bunday keng ko‘lamli o‘zgarish jamiyatda “Ta’lim sohasidagi bugungi yangilanishlarning asosiy mazmun-mohiyati nimada?” degan savolni uyg‘otadi. Bu savolga asosli javob topish uchun esa mustaqillik yillarida bosib o‘tilgan yo‘lga qisqacha nazar tashlash, bugungi islohotning tarixiy mantig‘ini anglash va uning kelajak uchun ochayotgan imkoniyatlarini xolis baholash lozim bo‘ladi.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq yosh davlat ta’limni milliy tiklanishning tayanch ustuni sifatida belgilab olgan edi, 1992-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun sobiq ittifoqdan meros mafkuraviy tizimdan voz kechib, milliy ta’lim tizimini shakllantirishning huquqiy asosini yaratdi. 1997-yilgi yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinishi bilan to‘qqiz yillik umumiy o‘rta ta’lim hamda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidan iborat o‘n ikki yillik majburiy ta’lim modeli joriy etildi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan iborat keng tarmoq barpo qilindi. Bu bosqich o‘z davri uchun muhim tarixiy vazifani ado etib, ta’limning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga xizmat qildi. Ammo vaqt o‘tishi bilan tizimda miqdoriy ko‘rsatkichlarga ortiqcha urg‘u berilgani, oliy ta’limga kirish imkoniyati keskin cheklanib qolgani, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning mavsumiy paxta yig‘im-terimiga jalb etilishi kabi jiddiy muammolar to‘planib bordi. Natijada 2016-yilga kelib maktab bitiruvchilarining oliy ta’lim bilan qamrab olinishi taxminan 9 foiz darajasida qolgan edi.

2016-yildan boshlangan yangi davr ta’lim tizimiga xolis va tanqidiy nigoh bilan qarash, mavjud muammolarni ochiq tan olish va ularni tizimli hal etish bosqichi bo‘ldi. Davlatimiz rahbarining qat’iy siyosiy irodasi bilan bolalar va o‘qituvchilarni majburiy mehnatga jalb etish amaliyotiga barham berildi. Prezidentimiz joriy yil 30-sentabrda “Yangi O‘zbekiston” universitetida ustoz va murabbiylar bilan o‘tkazilgan uchrashuvda bu tarixiy o‘zgarishni ixcham va ta’sirli tarzda ifodalab, **“Biz bolalarimizni paxta dalasidan maktab partasiga, o‘qituvchilarni ta’lim jarayoniga qaytardik”,** dedi.

2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun uzluksiz ta’lim tamoyilini, ta’lim muassasalarining akademik erkinligini va nodavlat ta’lim xizmatlari uchun teng sharoitlarni qonuniy jihatdan mustahkamladi. Amalga oshirilgan ma’muriy islohotlar natijasida 2022-yilda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashkil etildi.

O‘tgan o‘n yil davomida amalga oshirilgan ishlarning ko‘lami raqamlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bu davrda 1 million 800 ming o‘rinli bog‘chalar va 1,5 million o‘rinli maktablar barpo etilib, 10 mingdan ziyod ta’lim muassasasi zamonaviy ko‘rinishga keltirildi. Oliy ta’lim muassasalari soni 77 tadan 205 taga yetib, ulardagi qamrov 45 foizga ko‘tarildi. Bugun mamlakatimiz oliygohlarida tahsil olayotgan talabalar soni 1 million 600 ming nafarni tashkil etmoqda, yettita oliygoh esa 17 ta fan yo‘nalishi bo‘yicha nufuzli xalqaro reytinglardan o‘rin oldi.

Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari kabi mutlaqo yangi turdagi ta’lim dargohlari vujudga keldi. PISA xalqaro tadqiqotida 15 yoshli o‘quvchilarimiz tabiiy fanlar bo‘yicha 32 pog‘ona yuqorilab, 48-o‘rinni egallagani, birgina joriy yilning o‘zida yoshlarimiz nufuzli olimpiadalarda 228 ta medalni qo‘lga kiritgani, maktab davridayoq xorijiy til va fanlardan sertifikat olgan o‘quvchilar soni 100 mingga yetgani ushbu islohotlar sifat jihatidan ham samara berayotganini ko‘rsatadi.

Islohotlarning eng muhim yutuqlaridan biri o‘qituvchi shaxsiga, mehnati va ijtimoiy maqomiga munosabatning tubdan o‘zgargani bo‘ldi. Xalqaro va milliy sertifikatga ega o‘qituvchilar soni besh yilda 29 mingdan 143 mingga oshgani, maktablardagi o‘qituvchi yetishmovchiligi uch barobar kamaygani bu yo‘nalishdagi izchil siyosatning natijasidir.

Shu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi: erishilgan yutuqlar shunchalik salmoqli ekan, nima uchun boshqaruv tizimini qayta qurishga ehtiyoj paydo bo‘ldi? Bu savolning javobi tizimli boshqaruv nazariyasining asosiy qoidalaridan birida mujassam bo‘lib, unga ko‘ra, murakkab tizimning samaradorligi, eng avvalo, uning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi aloqalarning uzviyligi va uyg‘unligi bilan belgilanadi.

Ta’limning turli bosqichlari turli idoralar tasarrufida bo‘lgan sharoitda har bir bosqich o‘z standartlari, o‘z hisobot ko‘rsatkichlari va o‘z ustuvorliklari asosida faoliyat yuritar edi. Oqibatda maktabgacha yoshda egallangan ko‘nikmalar boshlang‘ich sinfda izchil davom ettirilmasligi, maktab bitiruvchisining tayyorgarligi oliy ta’lim talablariga to‘liq mos kelmasligi, oliygohlardagi ilmiy izlanishlar esa maktab darsliklari va o‘qitish metodikasi bilan yetarlicha bog‘lanmasligi kabi nomutanosibliklar saqlanib qolayotgan edi.

Prezidentimiz uchrashuvda yoshlarni maktabdanoq kasbga tayyorlash va ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash bo‘yicha komissiya tuzilib, uch oy ichida yangi yechimlar e’lon qilinishini aytgan edi. Oradan atigi uch kun o‘tib, yagona vazirlik tashkil etilgani esa davlatimiz rahbari uchun so‘z va amal o‘rtasidagi uyg‘unlik, islohotlarni kechiktirmasdan hayotga tatbiq etish boshqaruvning asosiy uslubi ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Izohlanganidek, yangi boshqaruv modeli vazifalarning aniq taqsimotiga asoslanadi. Unga ko‘ra, Ta’lim va ilm-fan vazirligi barcha bog‘cha, maktab, professional va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va ularning operatsion jarayonlari uchun mas’ul bo‘ladi. Ta’lim faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi, akkreditatsiyalash va litsenziyalash bilan shug‘ullanadi.

Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi o‘quv dasturlari, qo‘llanmalar va metodik materiallarni ishlab chiqadigan o‘ziga xos laboratoriya vazifasini bajarib, ularni amaliyotga joriy etadi. Natijalarini kuzatib boradi, aniqlangan kamchiliklar asosida takomillashtiradi. Bu ishlarning barchasi Prezidentimiz belgilab bergan “o‘zbek maktabi bitiruvchisining portreti”ga tayangan holda olib boriladi.

Prezident Administratsiyasi va uning huzurida tuziladigan maxsus ishchi guruh yangi vazirlikning tuzilmasini ishlab chiqib, ish jarayonlarini qayta ko‘rib chiqadi, ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi hamda islohotning umumiy strategiyasini belgilaydi. Oliy ta’limda esa davlat aralashuvini keskin qisqartirish, oliygohlar mustaqilligini kengaytirish va nodavlat sektor uchun imkoniyatlar yaratish ko‘zda tutilgan bo‘lib, qaysi oliygoh sifatli ta’lim berayotganini erkin raqobat va bozor talabi ko‘rsatib berishi lozim.

Ushbu modelning ilmiy jihatdan eng muhim xususiyati boshqaruvning operatsion va mazmuniy funksiyalarini oqilona ajratishda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy davlat boshqaruvi nazariyasida ijro va baholash funksiyalarini turli institutlarga yuklash manfaatlar to‘qnashuvining oldini oladigan asosiy tamoyil hisoblanadi. Chunki o‘zi tashkil etgan jarayonni o‘zi baholaydigan idora natijalarni xolis ko‘rsatishda qiynaladi. Milliy agentlikning “laboratoriya” sifatida ta’riflanishi esa ta’limshunoslikda keng qo‘llanadigan dalillarga asoslangan siyosat tamoyiliga mos keladi. Unda har bir yangilik avval sinovdan o‘tkaziladi, natijalari o‘lchanadi, shundan keyingina ommaviy amaliyotga joriy etiladi.

Islohotning strategik yo‘nalishini Prezident Administratsiyasi darajasida belgilash ta’limni davlat siyosatining eng oliy ustuvor yo‘nalishi sifatida ko‘rish demakdir. Zero, davlatimiz rahbari maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, oliy ta’lim va ilmiy-ma’rifiy muassasalarni Uchinchi Renessans poydevorining uzviy halqalari sifatida ta’riflab keladi. Yagona vazirlik esa aynan shu halqalarni bir zanjirga birlashtiruvchi institutsional mexanizmga aylanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ta’lim va ilm-fanni yagona boshqaruv tizimida birlashtirish g‘oyasining hayotiyligini yaqqol tasdiqlaydi. Yaponiyada 2001-yil yanvarda Ta’lim vazirligi bilan Fan va texnologiyalar agentligi birlashtirilib, Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi tashkil etildi. Bu qaror maktabdan universitetgacha bo‘lgan ta’lim jarayonini va fundamental tadqiqotlarni yagona strategiya asosida boshqarish imkonini berdi. XXI asr boshidan buyon yapon olimlarining tabiiy fanlar va tibbiyot bo‘yicha yigirmadan ortiq Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgani esa shu tizimli yondashuvning samarasidan dalolat beradi.

Estoniyada Ta’lim va tadqiqotlar vazirligi bog‘chadan doktoranturagacha bo‘lgan barcha bosqichlarni hamda ilmiy siyosatni birdek muvofiqlashtiradi. Aholisi bir yarim millionga yetmaydigan bu mamlakat raqamli ta’lim infratuzilmasini erta joriy etgani va boshqaruvning yaxlitligini ta’minlagani tufayli PISA-2022 tadqiqotida Yevropa davlatlari orasida yetakchi natijalarni qayd etdi.

Finlyandiya tajribasi bugun O‘zbekistonda joriy etilayotgan modelga, ayniqsa, yaqin bo‘lib, u yerda Ta’lim va madaniyat vazirligi ta’limning barcha bosqichlari va ilmiy siyosat uchun mas’uldir. Finlyandiya milliy ta’lim agentligi esa milliy asosiy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ijrosini tahlil qilish va takomillashtirish vazifasini bajaradi. Bu esa bizda tashkil etilayotgan Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligining “laboratoriya” maqomi bilan mazmunan uyg‘un.

Finlyandiyada o‘qituvchilik kasbiga magistr darajasiga ega mutaxassislar qabul qilinadi. 2009-yilda qabul qilinib, 2010-yildan kuchga kirgan “Universitetlar to‘g‘risida”gi qonun esa oliygohlarni mustaqil yuridik shaxsga aylantirib, ularga moliyaviy va tashkiliy erkinlik berdi.

Singapurda Ta’lim vazirligi ta’limning barcha bo‘g‘inlarini yagona strategiya asosida boshqaradi. Mamlakatdagi yagona pedagogik kadrlar tayyorlash markazi bo‘lgan Milliy ta’lim instituti bo‘lajak o‘qituvchilarni eng iqtidorli bitiruvchilar orasidan saralab oladi. Bu izchil tizim natijasida Singapur o‘quvchilari PISA-2022 tadqiqotida matematika, o‘qish savodxonligi va tabiiy fanlarning uchala yo‘nalishi bo‘yicha birinchi o‘rinni egalladi.

Janubiy Koreyada 25-34 yoshli aholining qariyb 70 foizi oliy ma’lumotga ega. Bu ko‘rsatkich Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo davlatlar orasida eng yuqori natija. Mamlakatning XX asr o‘rtalaridagi qashshoqlikdan bugungi texnologik yetakchilikka erishgan tarixiy yo‘li esa inson kapitaliga qilingan izchil sarmoya iqtisodiy o‘sishning eng ishonchli manbai ekanini isbotlaydi.

Ushbu tajribalarning barchasini birlashtiruvchi umumiy xulosa shuki, muvaffaqiyatli ta’lim tizimlari ta’limning barcha bosqichlarini yagona mantiq asosida boshqaradi. Mazmun va sifatni baholashni alohida malakali institutga yuklaydi, oliygohlarga keng mustaqillik berib, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratadi, o‘qituvchini esa tizimning markaziy bo‘g‘ini sifatida qadrlaydi.

Mamlakatimizda joriy etilayotgan yangi model aynan shu to‘rt tamoyilni o‘zida mujassam etgani Prezidentimiz boshchiligida olib borilayotgan islohotlar jahon tajribasini chuqur o‘rgangan holda, ilmiy asosda ishlab chiqilayotganini ko‘rsatadi.

Yagona vazirlik tashkil etilishi Prezidentimizning ustoz va murabbiylar bilan o‘tkazgan uchrashuvida ilgari surilgan tashabbuslar bilan uzviy bog‘liqdir.

Maktab ta’limi bo‘yicha tashabbuslar orasida matematika, fizika, kimyo va biologiyani chuqur o‘qitishga alohida e’tibor qaratilgani diqqatga sazovor. O‘quvchilar soni 25 nafardan oshgan sinflarda ushbu fanlar ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi, milliy sertifikatga ega o‘qituvchilarga 50 foiz ustama to‘lanadi, har yili 208 ta tuman va shahardagi yetakchi muallimlar mukofotlanib, ming nafar pedagog xorijda stajirovka o‘taydi. Yangi o‘quv yilidan 100 ta maktabda matematika, informatika va tabiiy fanlar ayrim sinflarda to‘liq ingliz tilida o‘qitiladi, bu loyiha o‘qituvchilari va maktabga tayyorlov guruhi pedagoglariga 100 foiz ustama belgilanadi. Maktablar faoliyatini baholash uchun esa “sifat indeksi” joriy etilib, ta’lim natijalari va pedagoglar salohiyatiga qarab muassasalar toifalarga ajratiladi, o‘z tajribasi bilan boshqa maktablarning yuqori toifaga o‘tishiga ko‘maklashgan ilg‘or maktablarning pedagogik jamoasi 30 foiz ustama oladi. O‘qituvchilar malakasini oshirishda majburiy bir oylik kurslar o‘rniga kasbiy rivojlanish vaucherlari berilib, pedagoglar o‘z natijasiga qarab 18 soatdan 72 soatgacha bo‘lgan o‘quv dasturini mustaqil tanlashi, olimpiada g‘oliblarini tayyorlagan ustozlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri oliy toifaga ega bo‘lishi, ta’limning barcha bo‘g‘inlaridagi ilg‘or pedagoglar uchun Abdulla Avloniy nomidagi alohida davlat mukofotini ta’sis etish taklifi o‘qituvchi mehnatini e’zozlashning yangi bosqichini boshlab beradi.

Maktabgacha ta’limda bog‘chani bolaning qobiliyati kashf etiladigan maskanga aylantirish vazifasi qo‘yildi. Ilg‘or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan va o‘yin orqali ta’lim berishga yo‘naltirilgan dastur bo‘yicha 180 ming tarbiyachi va pedagog o‘qitilmoqda, yil yakuniga qadar bu dastur 38 mingdan ortiq bog‘chaning barchasiga joriy etiladi. Kelasi yildan 2-3 yoshli farzandini oilaviy bog‘chaga bergan ishli onalarning badal puli byudjetdan qoplanishi esa oila institutini mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy siyosatning yorqin ifodasidir.

Alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning tengdoshlari bilan bir muhitda o‘qishini ta’minlash maqsadida inklyuziv sharoit yaratilgan maktablar soni ikki yilda 729 tadan 3 ming 591 taga, ya’ni qariyb besh barobar oshirildi. O‘quvchi o‘rinlariga talab yuqori 52 ta tumanda xususiy maktablar tashkil etish uchun imtiyozli kredit va subsidiya ajratilishi, bo‘sh turgan davlat binolarining xususiy maktablarga o‘n yilga bepul ijaraga berilishi, farzandi xususiy maktabda o‘qiydigan ota-onalar uchun soliq olinmaydigan daromad chegarasining 3 milliondan 6 million so‘mga oshirilishi esa davlat va xususiy sektor hamkorligining yangi imkoniyatlarini ochadi.

Professional ta’limda so‘nggi ikki yilda 104 ta texnikumga xalqaro dasturlar joriy etildi. Texnikumlarning 25 ming korxona bilan hamkorligi 100 mingdan ziyod yoshga o‘qish bilan bir vaqtda daromad topish imkonini berdi. Dual ta’limda kasb o‘rganayotganlarga 1 million 300 ming so‘mgacha stipendiya to‘lanmoqda. Ilk bor o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” kasb tanlovida 170 ming o‘quvchi ishtirok etgani yoshlar orasida ishchi kasblarga qiziqish qayta uyg‘onayotganini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz maktab bitiruvchisi katta hayotga kasb va xorijiy tilni egallagan holda kirib borishi zarurligini ta’kidlab, maktab direktorlariga bu borada qo‘shimcha vakolatlar berilishi, hamkorlikka tayyor tadbirkorlar uchun sharoit yaratilishini belgiladi, bu vazifalarni hal etish esa aynan maktab, texnikum va oliygohni yagona boshqaruv ostida birlashtirgan tizimda eng samarali amalga oshirilishi mumkin.

Oliy ta’lim bo‘yicha uchrashuvda bildirilgan fikrlar islohotning eng dadil yo‘nalishlarini aks ettiradi. Prezidentimiz universitetlardagi darsliklar mazmuni va mutaxassislar tayyorlash sifati bugungi talablarga to‘liq javob bermayotganini ochiq tanqid qilib, muhandislik va tibbiyot oliygohlari zamonaviy yo‘nalishlar bo‘yicha yangi o‘quv adabiyotlarini yaratishi, ilg‘or xorijiy kitoblarni tarjima qilish va moslashtirish ishlarini kuchaytirishi zarurligini ta’kidladi.

“Korxona — oliygoh — maqsadli kadr” tamoyili asosidagi dual ta’lim tizimi kelasi yildan 75 ta, 2028-yildan esa barcha oliygohlarda yo‘lga qo‘yiladi. Bunda korxonalar o‘z ehtiyojiga mos nomzodlarni o‘qitish uchun buyurtma beradi, ishga olingan talabaga to‘lanadigan maoshning yarmini davlat qoplaydi, ish va o‘qishda yaxshi natija ko‘rsatgan yoshlar ikkinchi kursdan davlat granti asosida tahsil oladi.

Davlatimiz rahbari dunyoning eng kuchli 300 universiteti filiallarini mamlakatimizga jalb etish vazifasini belgilab, nufuzli universitetlar franshizasini olib kelgan xususiy oliygohlarning laboratoriya, jihoz, brend va kampus bilan bog‘liq xarajatlarining bir qismini qoplash, muhandislik, qishloq va suv xo‘jaligi, energetika, sun’iy intellekt hamda tibbiyot yo‘nalishlariga ustuvorlik berish kerakligini ta’kidladi. Bu tashabbuslar joriy yil bahorida e’lon qilingan

“U10 — O‘zbekistonning global darajadagi ilg‘or universitetlari” dasturi bilan uyg‘unlashib, tanlov asosida 10 ta oliy ta’lim tashkilotiga milliy tadqiqot universiteti maqomi berilishi va ularda ilmiy klasterlar tashkil etilishi mamlakatimiz ilm-fanini jahon maydoniga olib chiqishning strategik yo‘lini belgilaydi. Oliy ta’limda davlat aralashuvini qisqartirish va oliygohlarga akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik berish siyosati ushbu tashabbuslarning mantiqiy davomi bo‘lib, qaysi universitet sifatli ta’lim berayotganini erkin raqobat va bozor talabi ko‘rsatib berishi lozimligi tamoyili oliygohlarni o‘z nufuzini, ilmiy salohiyatini va bitiruvchilarining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini doimiy ravishda oshirib borishga undaydi.

Mazkur islohot natijasida erishiladigan natijalarni tahlil qilar ekanmiz, avvalo, yagona vazirlik bolaning bog‘chadan doktoranturagacha bo‘lgan ta’lim yo‘lini yaxlit va uzluksiz trayektoriya sifatida loyihalash imkonini berishini alohida qayd etish lozim. Bunda har bir bosqichning ta’lim natijalari keyingi bosqichning boshlang‘ich talablari bilan muvofiqlashtiriladi, “o‘zbek maktabi bitiruvchisining portreti” esa butun tizim uchun yagona mo‘ljal vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, ikki vazirlikning takrorlanuvchi funksiyalari, parallel hisobot tizimlari va idoralararo muvofiqlashtirishga sarflanadigan vaqt va resurslar qisqaradi. Tejalgan mablag‘lar esa bevosita o‘qitish sifati, o‘qituvchilar mehnatini rag‘batlantirish va ilmiy infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Uchinchidan, ilm-fan va ta’limning yagona boshqaruvda bo‘lishi ilmiy tadqiqotlar natijalarini o‘quv dasturlariga tezkor joriy etish, oliygoh laboratoriyalarini iqtidorli maktab o‘quvchilari uchun ochish, yosh tadqiqotchilarni maktab davridayoq aniqlab, ularni ilmiy faoliyatga bosqichma-bosqich olib kirishga keng yo‘l ochadi.

To‘rtinchidan, boshqaruvning yagona markazi paydo bo‘lishi mas’uliyatning aniq manzilini belgilaydi, bu esa farmonda alohida ta’kidlangan jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni amalda ta’minlashning eng muhim shartidir. Zero, jamiyat ta’lim sifati uchun kim javobgar ekanini aniq bilgandagina islohotlar natijasini xolis baholash va ularga faol ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Beshinchidan, islohotning eng uzoq muddatli samarasi inson kapitali va iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq bo‘lib, Jahon bankining 2020-yilgi Inson kapitali indeksida 62 foiz natijani qayd etgan O‘zbekiston uchun bu ko‘rsatkichni izchil oshirish milliy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylanadi. Xalqaro tadqiqotlarda ta’limning har bir qo‘shimcha yili inson daromadini o‘rtacha 9 foiz atrofida oshirishi qayd etiladi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan oliy ta’lim qamrovini 50 foizga yetkazish maqsadiga erishish va ta’lim sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta’minlaydigan asosiy resurs bo‘lib xizmat qiladi.

Islohotning bu salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa, ilmiy jamoatchilikning faol ishtirokini taqozo etadi. Shu bois, ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar sohasidagi kuzatishlarimiz asosida bir necha taklifni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchi taklif bolaning bog‘chadan doktoranturagacha bo‘lgan ta’lim yo‘lini qamrab oladigan yagona raqamli “ta’lim trayektoriyasi” platformasini yaratish bilan bog‘liq. Bu platformada har bir ta’lim oluvchining yutuqlari, sertifikatlari, olimpiada natijalari va kasbiy qiziqishlari shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligini to‘liq kafolatlagan holda jamlanib borsa, Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi ta’lim natijalarini bosqichlararo tahlil qilish, o‘quv dasturlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash va iqtidorli yoshlarni erta aniqlash uchun ishonchli dalillar bazasiga ega bo‘ladi. Estoniya va Singapur tajribasi ko‘rsatganidek, ta’limni boshqarishda yagona ma’lumotlar tizimi mavjudligi qarorlarni taxminlar asosida qabul qilish amaliyotidan ilmiy asoslangan siyosatga o‘tishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Ikkinchi taklif “o‘zbek maktabi bitiruvchisining portreti”ni milliy-ma’naviy meros bilan uyg‘un holda boyitishga qaratilgan. Bunda Abu Nasr Forobiyning fozil odamlar shahri haqidagi qarashlari, Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi, Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi ta’limoti kabi boy ma’naviy merosimiz zamonaviy kompetensiyalar tizimiga ilmiy asosda singdirilsa, raqamli va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari milliy o‘zlikni anglash va yuksak axloqiy fazilatlar bilan uyg‘unlashadi. Bu ishga Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti, Fanlar akademiyasining gumanitar yo‘nalishdagi institutlari va pedagogika oliygohlari olimlarini jalb etib, tarbiya mazmunini bog‘chadan oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlar uchun izchil ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi taklif farmonda belgilangan jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni tizimli shaklga keltirish xususida. Ta’lim va ilm-fan vazirligi har yili “O‘zbekistonda ta’lim va ilm-fanning holati to‘g‘risida”gi milliy ma’ruzani tayyorlab, uni mustaqil ekspertlar xulosasi bilan birga ochiq e’lon qilishi, ma’ruzada har bir hudud va har bir ta’lim bosqichi bo‘yicha sifat indeksi, PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlar natijalari, ilmiy nashrlar va patentlar dinamikasi aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday amaliyot Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ta’lim siyosatini jamiyat bilan doimiy muloqotda rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib kelmoqda. Bizda esa u ota-onalar, o‘qituvchilar va ish beruvchilarning islohotlarga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchi taklif ilm-fan va oliy ta’lim integratsiyasini chuqurlashtirishga daxldor. Fanlar akademiyasi institutlari va universitetlar hamkorligida qo‘shma doktorantura maktablarini tashkil etish, ilmiy grantlarni ochiq tanlov asosida, xalqaro ekspertiza ishtirokida taqsimlash, har bir yirik ilmiy loyiha doirasida talabalar va iqtidorli maktab o‘quvchilari uchun tadqiqot amaliyotini tarkibiy qism sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv ilmiy salohiyatning yosharishiga, tadqiqot natijalari iqtisodiyot tarmoqlariga tezkor joriy etilishiga va Prezidentimiz belgilab bergan “tarmoq — korxona — oliy ta’lim tashkiloti — ilmiy tashkilot” zanjiri to‘laqonli ishlashiga xizmat qiladi.

Ta’lim va ilm-fan vazirligi tashkil etilishi mustaqillik yillarida bosib o‘tilgan yo‘lning mantiqiy natijasi va yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichiga o‘tishning institutsional asosi, davlatimiz rahbarining ta’limni milliy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida ko‘radigan uzoqni ko‘zlovchi siyosatining yorqin ifodasi bo‘ldi. Bundan bir asrdan ziyod vaqt oldin ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot —yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”, deb yozgan edi. Bugun bu hikmat yangi mazmun kasb etib, davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylangani har bir ziyolini, har bir ustoz va murabbiyni quvontiradi. Bog‘cha, maktab, texnikum, oliygoh va ilmiy muassasalarni yagona maqsad sari birlashtirgan yangi tizim Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlab, yurtimizda Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va Ulug‘bek kabi allomalar an’anasini davom ettiradigan yangi avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, bugun ta’lim va ilm-fanda boshlangan yangi davr mamlakatimizning ertangi kuni uchun qo‘yilgan eng ishonchli sarmoya ekaniga shubha yo‘q.



Prezidentimiz O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ustozlarni ulug‘lab, “O‘qituvchi — mehr daryosi, o‘qituvchi — ezgulik bulog‘i, o‘qituvchi — ma’rifat quyoshi!” deya ta’rifladi. Bu so‘zlar, tabiiyki, har bir soha vakili, ilm ahlini juda mamnun qildi, ta’sirlantirdi. Zero, bu fikr ushbu kasb egalari uchun katta e’tirof bo‘ldi.

Nuqtayi nazar

Ishonch bizni


NURLI MANZILLAR SARI YETAKLAYDI

Uchrashuvda ta’kidlanganidek, bugun sun’iy intellekt bilim olish va mehnat qilish usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Biroq hech bir texnologiya, hech bir aqlli mashina bolaning qalbiga ustoz kabi yo‘l topib, unga Vatanga muhabbat va mas’uliyat tuyg‘usini singdira olmaydi. Tadbirda ta’lim va ilm-fan fidoyilariga davlat mukofotlari topshirildi. Mukofotlanganlar orasida nafaqat pedagoglar, balki ta’lim rivojiga hissa qo‘shayotgan tadbirkorlar va xorijlik hamkorlar ham borligi diqqatga sazovor. Ta’limning barcha bo‘g‘inidagi ilg‘or muallimlar uchun buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy nomidagi alohida davlat mukofoti ta’sis etilishi esa soha xodimlariga yanada kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi.

Ta’limni rivojlantirish yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim sharti. Mamlakatimizda keyingi o‘n yilda 1 million 800 ming o‘rinli bog‘cha, 1,5 million o‘rinli maktablar barpo etildi, 10 mingdan ziyod ta’lim muassasasi zamonaviy ko‘rinishga keltirildi. Biroq eng e’tiborli jihat shuki, davlatimiz rahbari binolardan ham muhimroq masala o‘qitish mazmuni va sifati ekanini qayd etib, “Biz bolalarimizni paxta dalasidan maktab partasiga, o‘qituvchilarni ta’lim jarayoniga qaytardik”, dedi. Mana shu gapda butun bir davrning insonparvarlik mazmuni jo bo‘lgan. Chunki bola paxta dalasida emas, partada, sinfxonada kamol topishi kerak.

2018-yildan boshlangan yangi avlod darsliklarini yaratish masalasi bugun o‘z samarasini bermoqda. Xorij tajribasi o‘rganilib, 8-sinfgacha darsliklar yangilandi. Birgina joriy yilda 400 dan ziyod mutaxassis ishtirokida 324 darslik qayta ishlandi. Ular bolalarda milliy qadriyatlar, tabiatga mas’uliyatli munosabat, raqamli va moliyaviy savodxonlik bilan birga mustaqil hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. 2030-yilga qadar yuqori sinflar uchun darsliklar ham yangilanadi.

Islohotlar natijasi o‘quvchilarning yutuqlarida yaqqol ko‘rinmoqda. PISA reytingida 15 yoshli o‘g‘il-qizlarimiz tabiiy fanlar bo‘yicha 32 pog‘ona yuqorilab, 48-o‘rinni egalladi. Shu yilning o‘zida yoshlarimiz nufuzli olimpiadalarda 228 medalga sazovor bo‘ldi. Maktab davridayoq





chet tili va fanlardan xalqaro sertifikat olgan o‘quvchilar soni 100 mingga yetdi. Bu raqamlar qalbni quvonchga to‘ldiradi. Zero, bu medallar va sertifikatlar ortida minglab ustozlarning tunu kun qilgan mehnati, farzandlarimizning tiyrak nigohi, yorug‘ kelajakka ishonchi turibdi.

Pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash ham samara bermoqda. Xalqaro va milliy sertifikatga ega o‘qituvchilar soni besh yilda 29 mingdan 143 mingga yetdi. Maktablarda o‘qituvchi taqchilligi uch barobar kamaydi. Bugun 40 ming muallim 1000 dollardan, yana 1500 nafari esa 2000 dollardan yuqori maosh olmoqda. Bu pedagog mehnati qadrlanayotgani, “Inson qadri uchun” g‘oyasi aynan o‘qituvchi timsolida ro‘yobga chiqayotgani isbotidir. “Yil o‘qituvchisi” tanlovi endi bog‘cha tarbiyachilari va texnikum ustalarini ham qamrab oladi. Demak, mehr daryosining har bir tomchisi, ma’rifat quyoshining har bir qatim nuri qadrlanadi.

Prezidentimiz kelgusidagi vazifalarga to‘xtalar ekan, maktab bitiruvchisi katta hayotga kasb va xorijiy tilni egallab chiqishi zarurligini ta’kidladi. Maktab direktorlariga qo‘shimcha vakolatlar beriladi, hamkorlikka tayyor tadbirkorlar uchun sharoit yaratiladi. Yoshlarni maktabdanoq kasbga tayyorlash va ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash bo‘yicha komissiya tuziladi. Iqtisodiyotning texnologik rivoji uchun matematika, fizika, kimyo va biologiyani chuqur o‘qitishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu fanlar o‘quvchilar soni 25 nafardan oshgan sinflarda ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi. Demak, har bir bolaga alohida e’tibor, alohida mehr beriladi. Milliy sertifikatga ega o‘qituvchilarga 50 foiz ustama to‘lanadi. Har yili ming nafar pedagog xorijda stajirovka o‘taydi, olimpiada g‘oliblarini tayyorlagan ustozlar to‘g‘ridan to‘g‘ri oliy toifaga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflar uchun ham fan olimpiadalari yo‘lga qo‘yiladi. Kelasi yildan 4-sinflar o‘rtasidagi tanlov g‘oliblari kompyuter bilan, ularning ustozi esa pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi. Yangi o‘quv yilidan 100 ta maktabda matematika, informatika va tabiiy fanlar ingliz tilida o‘qitiladi. Bu loyiha pedagoglariga 100 foiz ustama belgilanadi. Maktablar faoliyatini baholash uchun “sifat indeksi” joriy etiladi. Ilg‘or maktablar o‘z tajribasi bilan boshqalarga ko‘maklashsa, ularning jamoasi 30 foiz ustama oladi. O‘qituvchilar malakasini oshirishda majburiy kurslar o‘rniga kasbiy rivojlanish vaucherlari beriladi. Ya’ni ustoz o‘z natijasiga qarab o‘zi tanlaydi. Bu pedagogning shaxsi, erki va qadriga hurmat ifodasidir.

Ikki yilda inklyuziv sharoit yaratilgan maktablar soni qariyb besh barobar oshib, 3591 taga yetdi. Toshkentda ish boshlagan ko‘p funksional inklyuziv resurs maktabi tajribasi tez orada Xorazm, Jizzax, Samarqand viloyatlarida, so‘ng barcha hududda joriy etiladi. Mana shu — davlatning qudrati inson qadrini qanchalik himoya qila olishi bilan belgilanadi degan haqiqatning eng ta’sirchan isboti. Chunki har bir bolaning — jismoniy imkoniyati cheklangan o‘g‘il-qizning ham tengdoshlari bilan bir muhitda, bir mehr ostida ta’lim olishi chinakam insoniylik, chinakam adolatdir.

Maktabgacha ta’limda ham bog‘cha bolaning qobiliyati kashf etiladigan maskanga aylanishi zarurligi ta’kidlandi. O‘yin orqali ta’lim berishga qaratilgan dastur bo‘yicha 180 ming tarbiyachi o‘qitilmoqda, yil yakuniga qadar bu dastur 38 mingdan ortiq bog‘chaning barchasiga kiritiladi. Ishli onalarni qo‘llab-quvvatlash uchun esa kelasi yil 1-yanvardan 2-3 yoshli farzandini oilaviy bog‘chaga bergan ayollarning badal puli byudjetdan qoplanadi. Mana shu nozik g‘amxo‘rliklarda ona qadri, bola qadri, oila qadri, bir so‘z bilan aytganda, inson qadri va qadriyatlarimiz yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Kasbiy ta’limda so‘nggi ikki yilda 104 ta texnikumda xalqaro dasturlar joriy etildi. Texnikumlarning 25 ming korxona bilan hamkorligi 100 mingdan ziyod yoshga o‘qish bilan birga daromad topish imkonini berdi. Dual ta’limda stipendiya 1 million 300 ming so‘mgacha to‘lanmoqda. Ilk bor o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” kasb tanlovida 170 ming o‘quvchi ishtirok etdi. Eng munosiblar 2028-yili Tokioda o‘tkaziladigan kasblar bo‘yicha jahon chempionatiga tayyorlanadi.

Oliy ta’lim haqida so‘z borar ekan, mamlakatimizda talabalar soni 1 million 600 mingga yetgani, yettita oliygoh 17 ta fan bo‘yicha xalqaro reytinglarga kirgani qayd etildi. Biroq oliy ta’lim muassasasi rahbari sifatida men Prezidentimizning adolatli tanqidini alohida mas’uliyat bilan qabul qildim. Davlatimiz rahbari universitetlardagi darsliklar mazmuni va mutaxassislar tayyorlash sifati bugungi talabga to‘liq javob bermayotganini aytdi. Bu bizga qarata aytilgan ogohlantirish, ayni paytda ishonch ifodasidir. Rektorlarning ta’lim sifati va natijasi uchun mas’uliyati oshiriladi. Davlat universitetlari kuzatuv kengashlari a’zolarining uchdan ikki qismi xususiy sektor va xorijiy oliygohlar vakillaridan shakllantiriladi, kengashlar har yili kamida 50 ta darslik yaratadi, bitiruv ishlari esa iqtisodiyotning amaliy masalalariga qaratiladi.

Oliygohlarda “korxona — oliygoh — maqsadli kadr” tamoyili asosida dual ta’limni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Tizim kelasi yildan 75 ta, 2028-yildan barcha oliygohda yo‘lga qo‘yiladi. Ishga olingan talabaga to‘langan maoshning yarmini davlat qoplaydi. Yaxshi natija ko‘rsatgan yoshlar ikkinchi kursdan davlat granti asosida o‘qiydi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari dunyoning eng kuchli 300 universiteti filiali mamlakatimizga jalb etilishini aytdi. Muhandislik, qishloq va suv xo‘jaligi, energetika, sun’iy intellekt hamda tibbiyot yo‘nalishlariga ustuvorlik beriladi. Bularning barchasi bir maqsadga — yoshlarimizning yetuk, bilimli, raqobatbardosh kadr bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Ustozni e’zozlash bir kasb egasini emas, butun bir millat kelajagini e’zozlash degani. Chunki bolani tarbiyalaydigan — ustoz, millat kelajagini quradigan — ustoz, inson qadrini eng avval dars soatida ulug‘laydigan yana o‘sha ustozdir.

Ekilgan har bir urug‘ bir kun unib chiqadi, berilgan har bir mehr bir kun o‘z mevasini beradi. Bizning burchimiz bugun partada o‘tirgan farzandlarimizni ertangi kunning yorug‘ nurlariga eltib qo‘yishdir. Shu ishonch, shu umid, shu mehr bizni oldinga yetaklaydi.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
Farg‘ona davlat universiteti rektori



ULUG‘VOR TARIXIMIZ MA’NAVIY YO‘LCHIROG‘IMIZDIR

O‘zbekiston mustaqilligining ildizlari xalqimizning ko‘p asrlik davlatchilik tarixi, ozodlik va erkinlik uchun olib borgan kurashlari bilan chambarchas bog‘liq. Amir Temur va temuriylar davri, jadidchilik harakati hamda XX asrdagi milliy uyg‘onish jarayonlari xalqimizning o‘zligini anglab yetishida muhim o‘rin tutgan.

Mansur YUNUS,
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti, Respublika “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi

Tarixini bilgan xalq o‘zligini anglaydi, o‘zligini anglagan xalq o‘z kelajagini o‘zi belgilaydi. Tom ma’noda 2026-yili mamlakatimizda tarix zarvaraqlarining yangi sahifalari ochilmoqda. Mustaqilligimizning 35 yillik tantanasi hikmatlarga boy bo‘ldi. Ushbu shukuhli bayram Ikkinchi Renessans davri asoschisi, buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizning 690 yilligi, she’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomizning 585 yilligi bilan uyg‘unlashib ketdi.

Bu — ma’naviyat bayrami. Bu — bashariyat bayrami. Uchta tamaddun to‘qnashgan ulug‘vorlik va g‘urur bayrami.

Qadimdan bobolarimiz ko‘hna Samarqand, Buxoroi sharif, ma’rifat o‘chog‘i bo‘lmish Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy kentlar bilan dunyoni maftun aylagan bo‘lsa, bugun Yangi Toshkent buyuk tarix, bugun va kelajakni bog‘laydigan ma’naviy ko‘prik vazifasini o‘tamoqda. “Ginness rekordlari kitobi”dan joy olgan muhtasham musiqiy favvora, dovrug‘i olamga ketgan “Yangi O‘zbekiston” universiteti, ilm-ma’rifat maskani bo‘lmish Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining qad rostlagani ham to‘yga to‘yona bo‘ldi. Yangi Toshkent biz uchun ma’naviyat ko‘zgusidir.

Millatning buyuk kelajagi ham, tarixiy xotirasi ham ma’naviy ildizlaridan kuch oladi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tashabbusi bilan “Birlashib, buyuk tarix yaratamiz” mavzusida “Ma’rifat karvoni” ilmiy-ma’rifiy tadbirlariga start berildi.

kam uchraydi. Tarix — intellektual meros. Ta’limga tayanch. Ilm-fan va innovatsiya, raqamli transformatsiya esa ma’naviy poydevordir.

Uch ming yillik tarix kelajakka yo‘l ko‘rsatuvchi ma’naviy kompasimizdir. Uch ming yillik ildiz Uchinchi Renessans uchun ma’naviy, qonuniy poydevordir.

Biz yangi O‘zbekiston tarixini yozadigan avlodmiz! Biz buyuk tarix merosxo‘rlarimiz. Buyuk kelajakka asos soladigan, yangi davr yaratadigan avlodmiz.

Sohibqiron bobomiz o‘z tuzuklarida



Bugungi O‘zbekiston mustaqillik yillarida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Milliy davlat institutlari mustahkamlandi, zamonaviy iqtisodiyot va infratuzilma rivojlanmoqda, ta’lim va ilm-fanga e’tibor kuchaymoqda. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar, ona tilimiz, tarixiy merosimiz va madaniyatimizni asrab-avaylash mustaqillikning muhim natijalaridan biridir.

Men yosh olim va Respublika Ma’rifat targ‘ibotchilari jamiyati a’zosi sifatida turli tashkilot va vazirliklarda davlatimiz rahbarining mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi va unda belgilab berilgan ustuvor vazifalar haqida davlat xizmatchilariga yanada kengroq tushuntirish ishlarida ishtirok etib kelmoqdaman.

Bugungi oqilona islohotlar zamirida buyuk kelajak yotibdi. Tarix bizga qarab turibdi. Shu bois, Prezidentimizning aslida buyuk istiqlolimiz ildizlari uch ming yildan ziyod bo‘lgan davlatchilik an’analarimiz va qadimiy sivilizatsiyamiz tarixiga borib taqaladi degan so‘zlari ayni haqiqatdir.

Bobolarimiz o‘z davrida Renessans yaratdi. Endi navbat bizniki. Bizning qo‘limizda ilm bor. Qalbimizda — Vatan. Ongu shuurimizda esa buyuk maqsad.

Aslida, dunyoda bu kabi uch ming yillik uzluksiz davlatchilik an’anasiga ega millat “Mamlakatni adolat bilan boshqardim, mashvarat qildim”, deydi. Bugungi islohotlarda ham “Xalq bilan muloqot” va “Inson qadri uchun” degan yuksak tafakkur mujassam.

Adolat bo‘lsa — ishonch, ishonch bo‘lsa — birlik bo‘ladi. Birlik bo‘lsa — qudrat bo‘ladi.

Bayram marosimida jadid bobolarimiz oldidagi ma’naviy qarzimiz ado etilayotgani ham tilga olindi. 1200 nafar qatag‘on qurboni oqlandi. Abdulla Qodiriy va Ishoqxon Ibrat uy muzeylari ish boshladi. Ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitratning “Ey ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi. Sen kuchsiz emassan!” degan xitobi bugun ham millatni uyg‘otish da’vatidir.

Istiqlol sabab shonu shavkatimiz, muqaddas dinimiz, ona tilimiz va milliy qadriyatlarimiz tiklandi. Mustaqillik o‘z taqdirini o‘zi belgilash, dunyoga ovoza bilan chiqish va o‘z tarixini o‘zi yoza bilishdir. Azim poytaxtimizda Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda Imom Buxoriy majmuasi va hadis maktablari bunyod bo‘lishi bugungi kunga qo‘yilgan tirik haykal demakdir. Jonajon yurtimiz azaldan mutafakkirlar, aziz avliyolar, buyuk allomalar yurti bo‘lgan muqaddas zamindir.

Mustaqillik bayrami arafasida keyingi oltin davrning yetti milliy dasturi ham keltirib o‘tilishi yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi va yuksak taraqqiyoti namunasidir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.